Oltun Sodiqov

# XOR PARTITURASINI O‘QISH



G‘AFUR G‘ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI

www.ziyouz.com kutubxonasi

85.314
C-70

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

OLTUN SODIQOV

# XOR PARTITURASINI O'QISH

Madaniyat, san'at yo'nalishidagi akademik litsey va kollejlar uchun o'quv qo'llanma

17736
4 IX 4

TERMIZ SAN'AT KOLLEJI
INVENTAR № 17736
AXBOROT RESURS MARKAZI

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2004

www.ziyouz.com kutubxonasi

85.314(5U)
C 70

*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi madaniyat va san'at sohasi bo'yicha o'quv-uslubiy kengashi hamda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti nashrga tavsiya etgan*

Maxsus muharrir **Muhayyo Nabiyeva**

Musiqa muharriri **Habibulla Rahimov**

Taqrizchilar: **R. Abdullayev, Q. Mirzayev**

Sodiqov, Oltun.
C 70 Xor partiturasini o'qish: Madaniyat va san'at yo'nalishidagi akademik litsey va kollejlar uchun o'quv qo'llanma. — T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. — 72 b.
Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti.

O'quv qo'llanma o'rta maxsus ta'lim tizimidagi litsey va kollejlari o'quvchilari hamda o'qituvchilariga mo'ljallangan, undan oliy o'quv yurti talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Berilgan nota namunalari o'quv-pedagogik repertuarda ishlatilgan.

**BBK 85.314(5U)я722**

$C\frac{4905000000-47}{M352(04)-2004}$ — **qat'iy buyurtma, 2003**

ISBN 5-635-02198-0

**© Oltun Sodiqov, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004- y.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

# KIRISH

«Xor partiturasini o'qish» o'quv qo'llanmasi asosan o'zbek kompozitorlari asarlaridan tuzilgan bo'lib, Respublikamizning madaniyat, san'at yo'nalishidagi akademik litsey va kollejlari hamda oliy musiqa o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmaning musiqiy misollari fortepianoda ijro etishning bosqichma-bosqich o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Qo'llanmadagi mavzular mutaxassis o'qituvchilar rahbarligi ostida o'tiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchi va talabalar qo'llanmadan mustaqil ravishda foydalanishlari ham mumkin. O'quv qo'llanmadan bir qator uslubiy ko'rsatmalar va ijrochilarga maslahatlar ham o'rin olgan.

O'quv qo'llanma turli murakkablikdagi partitura yozuvi va badiiy jihatdan barkamol xor asarlaridan tashkil topgan bo'lib, ular turli mazmun va shaklga, musiqiy tiliga, bayon qilinish uslubiga ega.

Qo'llanmadagi qo'shiq va xorlar badiiy-havaskorlik to'garaklarida, madaniyat saroylarida va boshqa tashkilotlarda konsert dasturi sifatida ijro etilishi mumkin.

O'quv qo'llanma oddiy asarlar bilan boshlanib, garmonik, ba'zan esa polifonik ko'rinishdagi murakkab ko'p ovozli asarlar bilan yakunlanadi. Bu turdagi partituralarning o'quv qo'llanmaga kiritilishi o'quv yurtlarining yuqori kurs talabalari tomonidan fortepianoda ijro etishi va o'zlashtirishiga mo'ljallangan.

Musiqiy texnik murakkablik qaysi turga tegishli ekanligi «O'quv qo'llanma» bo'limlarida ko'rsatib o'tilgan (partituraning fortepianoga moslashtirilishi nuqtai nazaridan).

Ushbu o'quv qo'llanma musiqa adabiyotlarini har tomonlama qamrab olmasdan, faqat ma'lum hajmda «Xor partiturasini o'qish» kursi talablariga javob beradi. Qo'llanma xor partiturasi yozuvining o'ziga xosligini va muhim xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

Tavsiya qilinayotgan asarlarni bosqichma-bosqich o'rganish o'quvchi va talabalarga zarur bilim, malaka va amaliy ko'nikma beradi.

**Eslatma:** musiqa asarlari asl nusxalardagi til va yozuvda (kirill, lotin va boshqa) berilishi jahon amaliyotida keng qo'llanilgani kabi ushbu qo'llanmada ham shu qoidaga amal qilindi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## Birinchi bob

# XOR PARTITURALARI VA UNING XUSUSIYATLARI

## 1-§. XOR PARTITURASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Partitura so'zi XV asrda vujudga kelgan italyancha so'z bo'lib, «bo'lish», «taqsimlash» degan ma'noni bildiradi hamda ko'p ovozli xor asarlarining nota yozuvini anglatadi. Bu yozuvning o'ziga xosligi shundaki, bir vaqtning o'zida ijro etiladigan ovoz partiyalari bir nechta nota qatorida vertikal ko'rinishda yoziladi.

**Hay yor-yor**

O'zbek xalq qo'shig'i

**Tez**

*B. Umidjonov* qayta ishlagan




**Ave Maria**

**Zehr zart (Очень нежно)**

*Я. Аркадельт*




Bir ovozli musiqadagi kuy yozuvidan farqli o'laroq, partiturada bir nechta nota yo'llari vujudga keldi. Partituraning har bir gorizontal nota yo'li asarda yuqori, o'rta, pastki kabi bir nechta alohida partiyalarni tashkil etadi.

Partituralarning ilk ko'rinishlarida musiqiy matn bitta nota yo'lida joylashgan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## Kuy

*T. Sodiqov*




Keyinchalik, kuyda ovoz partiyalarining[1] ritmik o'zgarib kelishi va mustaqil rivojlanishi natijasida har bir ovozni nota yo'lining alohida chizig'ida joylashtirish ehtiyoji tug'ildi. Bu chiziqlar ketma-ket tartibda joylashadi.

## Flisset danin

**Andante con moto**

*Д. Бернет*




O'tgan asr mobaynida partitura yozuvlarining tashqi ko'rinishi, xarakteri va shakl tuzilishi ma'lum darajada o'zgargan bo'lsa-da, asar partituralarining ketma-ket joylashuv tamoyili saqlab qolingan.

Bundan kelib chiqqan holda xor asarining ovoz partiyalari yozuvi yig'indisiga **x o r  p a r t i t u r a s i** deyiladi.

Xor asarlarining ovoz partiyalari bir-birining ostida, parallel ravishda (har biri alohida yoki ikkitasi bitta chiziqda va h.k.) mustaqil nota chiziqlarida joylashadi.

## Sozlar nag'masi

**Allegro**

*M. Bafoyev*




[1] Ashulada solo ovoz partiyasini yakkaxon ijrochi ijro etadi. Undan farqli o'laroq, xorda ovoz partiyasini xonandalar guruhi ijro etib, ular nisbatan bir xil diapazon, tembr va yaxshi ovozga ega bo'lishi lozim.



www.ziyouz.com kutubxonasi



Xor partituralarida ovoz partiyalari quyidagi tartibda joylashadi: eng yuqori ovozlar, ya'ni partiyalar nota yo'lining yuqori chizig'ida; pastroq diapazonli ovoz partiyalari yuqoridan ikkinchi chiziq yoki ikkinchi qatorda; uchinchi nota yo'lida esa undan ham pastroq ovoz partiyalari joylashadi va h.k.[1]

Agar partitura qatorida ikki, uch va to'rt ovozli partiyalar yozilsa, ular joylashuv tamoyili asosida taqsimlanadi. Tovushlarning aniq bir partiyaga tegishliligi nota tayoqchalari orqali aniqlanadi: yuqori partiyalar uchun nota partiyalari yuqoriga qarab, pastki tovushlar uchun esa pastga qarab yoziladi. Partiyalarning nomlari to'liq (soprano, alt, tenor, bas) yoki qisqartirilgan holda (S, A, T, B) keltiriladi. Bular tegishli partiyaning yonida, ustki yoki ostki qismida yoziladi.

**To'y xori**

«Layli va Majnun» operasidan

*T. Sodiqov, R. Glie*




Xor asarining ovoz partiyalarini yozish uchun kerak bo'lgan nota chiziqlari umumiy takt chizig'i bilan birlashadi va maxsus qavs (akkolada) bilan belgilanadi:





Akkolada bilan birlashtirilgan partiyalar bir vaqtning o'zida birgalikda ijro etiladi.

[1] Xorda xotin-qizlarning yuqori tovushi **soprano** (bolalarda **diskant**) deyiladi; pastki tovush esa **alt**; erkaklarning yuqori tovush **tenor**, pastkisi esa **bas** deyiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

## Hay yor-yor

O‘zbek xalq hazil qo‘shig‘i

*B. Umidjonov* aralash xor
uchun qayta ishlagan

**Tez**




O‘z ichiga ovoz va fortepiano jo‘rligidagi partiyalarni qamrab oluvchi akkoladalarda fortepiano partiyasi ko‘pincha figurali qavs bilan belgilanadi.

## Alla

*A. Mukhamedov* musiqasi
*B. Umidjonov* qayta ishlagan




Yaxshi bayon etilgan xor partiturasi har bir ovoz partiyasining vazifasini ko‘rsatish bilan birga ovoz harakatining melodik va ritmik xususiyatlarini ham namoyon etadi; bir vaqtning o‘zida jaranglayotgan ovozlarning soni va bog‘lanishini ham ko‘rsatadi. Partiturada qaysi partiyaning she’r matni bir xil va bir vaqtda harakatlanishi, qaysilarida esa mazmun yoki kuylash jihatidan ajralganligini kuzatish mumkin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Солнце, солнце встаёт**

*Вик. Калинников*

**a tempo**




Ba'zi partituralarda sur'at va uning o'zgarishi, metr haqida ko'rsatmalar, dinamik o'zgarishlar kabi ma'lumotlardan tashqari musiqani ijro etish xarakterini ham aniqlash mumkin, ba'zan esa ovoz partiyalarining o'ziga xos ijro yo'llari ko'rsatib berilganligi kuzatiladi.

**«Теплится зорька...»**

*П. Чесноков*




## 2-§. KALITLAR

Zamonaviy nota yozuvida xor asarlarining ovoz partiyalarini yozish uchun ikkita kalit ishlatiladi:

1. S o l yoki s k r i p k a kaliti.
2. F a yoki b a s kaliti.

Skripka kalitida soprano, alt va tenor partiyalari, bas kalitida esa bas partiyasi yoziladi. Ikki qatorli aralash xor uchun yozilgan asarlarda soprano, diskant va alt partiyalari skripka kalitida, bas va tenorlar esa bas kalitida yoziladi (eshitilishi va yozilishi bir xil).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Hay yor-yor**

O‘zbek xalq qo‘shig‘i

**Tez** *B. Umidjonov* qayta ishlagan




Skripka kalitida yozilgan tenor partiyalari bir oktava past eshitilishi sababli o‘qish va kuylashda t r a n s p o r t qilinadi.

**Yoshligim**

O‘zbek xalq qo‘shig‘i

**Moderato** *B. Umidjonov* qayta ishlagan




## 3-§. XOR PARTITURASI YOZUVINING TURLARI

Xor partiturasi yozuvining turli ko‘rinishlari mavjud. Bir nechta xor asarlari solishtirilganda ham turli miqdorda nota qatori, ovozlar soni va taqsimlanishi ko‘zga tashlanadi, nota kalitlari diqqatni o‘ziga jalb qiladi. Ba’zi partituralarda kalitlar bir xil, boshqalarida esa turlicha; ayrim partituralarda esa asosiy akkolada bilan birga yana qo‘shimcha kalitlar uchraydi va h.k.

Xor partiturasining yozuvi avvalambor ovoz partiyalarining tarkibi, turi va ko‘rinishi bilan aniqlanadi.

X o r — bu kuylovchilardan tashkil topgan ansambl bo‘lib, u bolalar, ayollar, erkaklar guruhlaridan iborat bo‘lishi yoki alohida har qaysi guruhdan va shu bilan bir qatorda turli guruhlarning qo‘shilishidan tuzilishi mumkin.

Xor faqat bolalar, faqat ayollar yoki faqat erkaklar ovozidan tashkil topgan bo‘lsa, tabiiyki, ular b o l a l a r, a y o l l a r yoki e r k a k l a r x o r l a r i deb nomlanadi. Ularning umumiy turlanish nomi esa b i r t u r d a g i x o r deyiladi.

Bolalar va ayollar, ba’zan esa erkaklar xorlarining qo‘shilishiga a r a l a sh xor deyiladi. Aralash xorning ko‘rinishi va turlanish nomlari bir-biriga mos keladi.

Ba’zan ayollar yoki bolalar xori bitta erkak ovoz partiyasi bilan (tenor yoki kamdan-kam bas) to‘ldiriladi yoki teskarisi — erkaklar xori bitta ayollar yoki bolalar ovozi partiyasi (alt yoki kamdan-kam soprano — diskant) bilan to‘ldiriladi. Bunday xorlarga t o ‘ l i q s i z a r a l a s h x o r deyiladi.

Partituralar bir-biridan tuzilishi jihatdan (ya’ni bir turdagi xorlar — bolalar, ayollar yoki erkaklar xori; aralash yoki to‘liqsiz aralash xorlar) farqlanadi. Xorlarning har qaysi ko‘rinishi va turi ma’lum tarkibga ega bo‘lib, ularning qo‘shilishi natijasida o‘ziga xos xususiyatlar paydo bo‘ladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Xor partiturasining aniq turi va ko'rinishi, qanday ijro imkoniyatiga mo'ljallanganligi, shubhasiz, musiqa mazmuni bilan bog'liq. Partituralarning nomlanishi, ovozlarning tartib bilan joylashuvi, nota kalitlari, ovozlarning umumiy diapazoni turli xor partituralarida turlicha bo'ladi.

Quyidagi misollarda bunday farqlarni ko'rishimiz mumkin:

**Ey umri aziz**

«Firoq» turkumidan

*B. Lutfullayev*




**«Голубь, голубь, голубинька...»**

Русская народная песня

*И. Некрасов*




Yuqorida keltirilgan misollarda ovoz partiyalarining majburiy bo'linishlari mavjud. Bolalar, ayollar va erkaklar xorlarida bunday partiyalar, odatda, ikkitadan, aralash xorda to'rttadan, to'liqsiz aralash xorda esa uchtadan bo'ladi. Bu ularning asosiy bo'linishi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda asosiy partiyalarning qo'shimcha bo'linishi ham uchraydi.

**Sunbul**

O'zbek xalq qo'shig'i

*V. Shepilov* moslagan




Asosiy ovoz partiyalari bo'lingan ko'rinishda quyidagicha nomlanadi: eshitilishi bo'yicha eng yuqori ovoz — b i r i n c h i  s o p r a n o (I); pastroq eshitiluvchi ovoz — i k k i n c h i  s o p r a n o (II); undan ham past eshitiladigan ovoz esa u c h i n c h i  s o p r a n o (III) deyiladi.

Xuddi shu yo'sinda altlar partiyasi alt I va alt II ga, tenor ham I, II va III partiyalarga bo'linadi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

### Ночь перед рождеством

Поезд Овсеня и Коляды

*Н. Римский-Корсаков*




Bas ovozlarining yengili b a s  b i r i n c h i (I) partiyasi yoki b a r i t o n deb ham ataladi.

Ovoz tarkibi jihatidan juda katta xorlar uchun mo'ljallangan xor asarlarida ko'pincha baslar ikki va uch mustaqil partiyalarga bo'linadi, bundan tashqari, ayrim hollarda esa, eng past erkak ovoz partiyasi — o k t a v i s t ajratiladi.

### Ноктюрн

*А. Аренский*




Bir turdagi xorlar uchun yozilgan ayrim asarlarda (asosan xalq qo'shiqlarida) ovozlar uzoq vaqt unison (bir ovozda) kuylaydi, bo'lingan holda esa murakkab bo'lmagan bir xil ritmik ko'rinishda harakatlanadi. Ba'zan bunday asarlar ayrim lavhalarda uch-to'rt partiyaga bo'linsa ham bir qatorda yoziladi.

### Xorazm raqs yallasi

«Dilorom» operasidan

**Allegretto**

*M. Ashrafiy*






www.ziyouz.com kutubxonasi

Aralash xorlar asosan to'rtta ovoz partiyasiga ega bo'ladi. To'rt ovozlikning aralash xor partituralaridagi oddiy ko'rinishi ikkilangan (takrorlangan) to'rt ovozlik deyiladi. Aslida, bu ikkita ikki ovozlikdir: soprano partiyasi tenor bilan bitta oktavada, alt esa bas bilan bitta oktavada qo'llaniladi.

**Песня о лесах**

*Д. Шостакович*




Odatda ancha murakkab musiqa asarlarida har qaysi ovoz partiyasi mustaqil rivojlanadi.
Partiyalari rang-barang ritmik harakatli lavhalarni tashkil etgan, matni turli ritmik ko'rinishlarda kuylangan, metr va boshqa ifoda vositalarining tez-tez almashinuviga asoslangan musiqiy misollar yanada murakkab bo'lgan asarlar qatoriga kiradi.

**Любовь**

*А. Новиков*




## 4-§. XOR PARTITURALARIDA SHE'RIY MATNNING YOZILISHI

So'zlarning shartli ravishda ko'pligi xor partiturasi yozuvining spetsifik xususiyati hisoblanadi. Matnning ma'nosi bo'lmaganda, odatda, xor kuylanishida turli xil xitoblar («ho», «hoy», «hey», «chey», «oy», «lya», «li» va h. k.) kiritiladi yoki og'izni yopib kuylashga ko'rsatma beriladi. Og'izni yopib kuylash jarayonida xonandalar «m-m», «n-n» kabi unli tovushlarni uzoq cho'zishadi, ba'zan esa «bum», «bam» va h. k. larga o'xshash ovozlar chiqarishadi.

She'riy matn partituralarda ovoz partiyalarining ostida yoki ustida yoziladi. Agar hamma ovoz partiyalarda she'riy matn bir xil bo'lib, bir vaqtning o'zida ijro etilsa, she'riy matn ovoz partiyalarining sonidan qat'i nazar, biror ovoz partiyasi ostida yoziladi va boshqa partiyalarda ham matn shunday taqsimlanishi nazarda tutiladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## Yor-yor

«Gulsara» operasidan qizlar xori

*T. Sodiqov* va *R. Glier*




Quyidagi misolda xor tomonidan matnning kuylanishi avvalgi misolga o'xshash. Lekin asarda bir vaqtning o'zida nota va so'zlarni osonroq o'qish uchun bir xil so'zlar ikki martadan yozilgan.

## Ergashning xor bilan hajviy qo'shig'i

«Zaynab va Omon» operasidan

*T. Sodiqov* va
*B. Zeydman*

Allegretto




## Адели

*С. Танеев*

Allegretto grazioso ♩= 72




Asosiy partiyalarning qo'shimcha bo'linishlari doimiy (asar davomida) va vaqtinchalik (ayrim lavhalar davomida) bo'lishi mumkin. Asosiy ovozlardan birining ayrim lavhalarda bo'linishi ko'pincha shu partiyaga



www.ziyouz.com kutubxonasi

mo‘ljallangan nota qatorida joylashadi. Partiyalarning bo‘linganligini tasdiqlash maqsadida ba’zan nota ustida «divizi» («divizi» — italyancha: «bo‘lingan») so‘zi yoziladi yoki nota tayoqchalari yuqori va pastga (tayoqchalar yuqori partiya uchun — yuqoriga, pastki partiya uchun — pastga) qarab yoziladi.

Bo‘lingan ovoz partiyalari uzoq vaqt mustaqil ritmik va melodik ko‘rinishga ega bo‘lsa, bunday holda ko‘pincha har bir partiya uchun alohida qator ajratishga to‘g‘ri keladi.

Ovoz partiyalari turli xil mustaqil ritmik ko‘rinishga ega bo‘lganda hamda turli xil matn qo‘llanilganda har bir partiya uchun so‘zlar alohida va to‘liq yoziladi.

**Танец**

*Ф. Дуранте*

Переложение *А. Сапожникова*




So‘zlar xor partituralarida (vokal musiqasidagiday) bo‘g‘inlarga bo‘linib, ovoz partiyalarining ostida yoki ustida yoziladi.

**Yoshligim**

O‘zbek xalq qo‘shig‘i

**Moderato** *B. Umidjonov* qayta ishlagan




So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi chiziqcha orqali amalga oshiriladi. Partiyada bitta bo‘g‘in ikki, uch va bir nechta tovushlar bilan ketma-ket kuylansa, bo‘g‘indan so‘ng chiziqcha yoki uzun chiziq qo‘yiladi. Shuningdek, bir nechta nota bo‘g‘in bilan kuylansa, notalar liga bilan birlashadi, qisqa cho‘zimlar esa (sakkiztalik, o‘n oltitalik va h. k.), notalarni guruhlash qoidasiga muvofiq holda umumiy chiziq bilan birlashadi. Ligalar bitta bo‘g‘inda bir nechta tovushlarni birlashtirish ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.


www.ziyouz.com kutubxonasi

Misol sifatida M. Bafoyevning «Maqom sadolari» xor turkumidan «Ufor» asarining 9—12-taktlarini ko'rish mumkin[1].

Keltirilgan misolda qo'llanilgan ligalar bir nechta tovushlarning bitta bo'g'inda kuylanishini bildiradi.

Xor asarining she'riy matni partituraning boshqa bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga ham sabab bo'ladi. Masalan, musiqiy asarda ligalar jumlaning davomiyligini bildiradi, xor partituralarida esa faqat undosh harflarni va og'izni yopib kuylash lavhalarida ishlatiladi.

Misol sifatida B. Lutfullayevning «Firoq» xor turkumidan «Qabog'ing yaxshi» asarining 57—64-taktlarini ko'rish mumkin[2].

Xor partituralarida so'zlar ko'p bo'lganda, jumla ahamiyatiga ega bo'lgan ligalar ishlatiladi. Adabiy matn jumlasining tuzilishiga qarab musiqiy jumlalar chegaralari aniqlanadi.

Misol sifatida H. Rahimovning «Toshkent taronasi»[3] xor uchun asarining 73—78- taktlarini ko'rish mumkin.

M. Bafoyevning «Maqom sadolari» poemasining «Xotima»[4] qismida 1—2- taktlarda yana ligalar uchramoqda. Lekin bu yerda balandligi jihatdan bir xil tovushlar birlashmoqda. Bular bog'lovchi ligalar deyiladi. Bunday ligalar bilan birlashgan tovushlar bitta bo'g'inda, xuddi bir kishi kuylagandek, uzluksiz ijro etilishi kerak. Tegishli bo'lgan ikki-uch tovushni (liga bilan birlashgan tovushlar) vaqt davomida bog'lab, cho'zib kuylash kerak.

Xor partituralarida adabiy matnning ko'pligi tufayli notalarni guruhlash nota va matn bo'g'inlarini birlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqatgina bir nechta tovush bitta so'z bo'g'ini bilan kuylanishi kerak bo'lgan holdagina xor partituralarida notalarni guruhlash cholg'u musiqasiga xos (taktning o'lchov va ritmik tuzilishi bilan aniqlangan) nota guruhlanishi bilan yaqinlashadi.

### Ikkinchi bob

# XOR PARTITURASINI O'QISH TURLARI

## 1-§. «XOR PARTITURASINI O'QISH» IBORASI

Partituralarni o'qish ma'nosini turli darajada o'zlashtirish mumkin.

Partitura to'liq tahlil qilinganda, sur'ati, usuli (ritmikasi), vokal-kuy xususiyatlari o'zlashtirilganda, dinamik va boshqa xususiyatlar ketma-ketligi aniq belgilanganda, musiqiy shakl ongli ravishda anglangandagina partitura o'qish to'laqonli amalga oshiriladi.

Amaliyotda xor partiturasini o'qishning bir nechta ko'rinishi mavjud. Ularning har biri o'z xususiyatiga ega.

## 2-§. XOR PARTITURASI O'QILISHINING KO'RINISHLARI

a) Ko'z yugurtirib o'qish.

Jonli xor ijrosi bilan birgalikda asarni tinglash, konsert yoki mashg'ulotda, gramplastinka yoki magnit tasmasi yozuvida, radio orqali uzatishda yoki partitura fortepianoda chalinganda partiturani ko'zdan kechirib o'qish eng qulay va foydali hisoblanadi.

Partiturani birinchi bor ko'rganda, shubhasiz, birinchi bo'lib so'z matni e'tiborni o'ziga jalb etadi. Partiturani kuzatish bilan birga xor kuylayotganda so'zlarning talaffuz etilishini eshitayotgan o'quvchi notadagi o'zgarishlarga ham ahamiyat bera boshlaydi. Xor partiturasini o'qiyotgan kishi xorni birgalikda va ketma-ket kuylash kerakligini sezadi va farqlaydi, xor ohangining ajratilgan lavhalarida ohangning ko'tarilish va pasayishiga e'tibor beradi. Tez almashinib keluvchi akkordlar bilan bir qatorda uzoq cho'ziladigan tovushlar va akkordlar e'tiborni o'ziga tortadi. O'quvchi kuylashning baland va past, kuchli va sekin almashinuvini *forte (f), piano (p), crescendo, diminuendo* kabi dinamik belgilar bilan taqqoslaydi.

Bir tuzilmadan ikkinchisiga o'tish yoki akkordlarning o'zaro taqqoslanishi, partituraning kerakli joyida yangi — diyez, bemol, bekar belgilarining paydo bo'lishini ko'rish orqali asarlardagi tonal o'zgarishlar

---

[1] Ilovaga qarang.
[2] Ilovaga qarang.
[3] Ilovaga qarang.
[4] Ilovaga qarang.



www.ziyouz.com kutubxonasi

idrok etiladi. Odatda vazmin va jadal, tezlashayotgan va sekinlashayotgan sur'atlarning taqqoslanishi ko'zga tez tashlanadi. Fermatolarda to'xtalishlar ko'rinadi va h. k.

Partiturada bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham kuzatilgan asar yaxshi esda qoladi.

Bundan so'ng partiturani cholg'uda qaytadan ko'rib chiqish osonroq bo'ladi. O'qish tajribasi oshgan sari o'qish va eshitish qobiliyati bir-biri bilan mujassamlashib boradi. Lekin bunday o'qishning nozik tomonlari ham bor. Eng muhimi, xorda o'qiydigan ijrochining qay darajada partitura bilan tanish ekanligi shug'ullanish vaqtiga bog'liq.

Bundan mazkur o'qish turining bir qator noqulayliklari paydo bo'ladi: a) bitta asarning o'zida takrorlashlar sonini aniqlashda o'quvchining majburiy sustligi va b) ijroning badiiy darajasini ko'tarishda, asar talqinini o'zgartirishda shaxsiy ta'sirning yo'qligi va h.k.

Biroq, ko'rsatilgan usullar bo'yicha partiturani o'qish juda foydalidir.

Texnik ovoz yozish vositalariga (gramplastinka, magnitafon) murojaat qilish ba'zan mashg'ulotlarda ishtirok etishdan ko'ra qulayroq hisoblanadi. Bu asarni bir necha bor takrorlash imkoniyatini beradi. Lekin o'quvchi xor bilan o'rganish jarayonida asarning ijro etilishidagi o'zgarishlarni kuzatish imkoniyatidan mahrum bo'ladi: yozilgan ovozda u har doim ohangning takrorlanishini eshitadi, xolos.

b) Xor kuylashi bilan birga ko'z yugurtirib o'qish.

Xor partiturasini o'qish turining keyingi bosqichi asarning partitura yozuvini kuzatib borish bilan bir vaqtda uni xor ijrosida ham tinglashdan iborat. Bunda o'quvchining o'zi ham xorda biron-bir ovoz partiyasini kuylashi lozim.

Bu usul matn va musiqaning turli bog'lanish shakllarini, partiturada uchraydigan turli belgilarning ma'no-mohiyatini va h. k. larni chuqurroq anglashga imkon beradi.

O'quvchining xor kuylashida shaxsan ishtirok etishi, partiyani o'zlashtirish jarayonida dirijyorning ogohlantirishlarini inobatga olishi partiturani hajm va mazmun jihatdan ko'z yugurtirib o'qish chegarasini kengaytiradi.

v) Fortepiano oldida partitura o'qish.

Bo'lajak xor rahbari va dirijyori uchun partiturani fortepianoda (royal) yoki biror-bir musiqa asbobida chalish muhim amaliy jihatlardan hisoblanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun ikki yo'nalishdagi mashg'ulotlar zarur: doimiy notaga qarab o'qish mashqi va xor partiturasini turli ikir-chikirlarigacha sabr-toqat bilan o'zlashtirish.

Fortepiano oldida xor partiturasini o'qiy biladigan dirijyor o'qiy bilmaydigan dirijyorlarga qaraganda professional jihatdan keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Birinchi dirijyor musiqa asarining mohiyatini osonroq tushunadi, uni oson va puxta o'rganadi. Odatda xor jamoalarini bunday dirijyorlar boshqarsa xor repertuarlarining tanlanishi erkinlashadi.

Fortepianoda partiturani chala oladigan dirijyor, zaruriyat tug'ilganda konsertmeystersiz ham xor bilan ishlay oladi. Bu esa unga o'zining ijrosi bilan asar talqinini mohirlik bilan jamoaga yetkazish imkonini berishi mumkin.

Xor jamoasi bilan ishlash jarayonida konsertmeyster — pianinochi bo'lgan taqdirda ham dirijyor u yoki bu partiturani tez-tez chalib turishiga to'g'ri keladi. Odatda asar dirijyor tomonidan ijro etilsa, xor amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifaning badiiy mohiyatini yaxshiroq anglaydi. Solistlar — yakkaxonlar yoki har bir ovoz partiyalari bilan alohida ishlash jarayonida dirijyorning fortepianoda partiturani chala olishi qo'l keladi.

g) Partiturani «ichida» o'qish.

Xor partiturasini ko'z yugurtirib o'qish va musiqa asarini ichki eshitish qobiliyati bilan sezish juda muhim va ahamiyatlidir. Eng avvalo, u vaqtni tejaydi, asarning ichki mohiyatiga kirib borishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda ko'z yugurtirib o'qish o'quvchining ijro paytida duch keladigan texnik qiyinchiliklarni yengishiga ham ko'mak beradi.

Masalan, ovoz partiyalari harakatida alohida passajlar yoki cholg'uda ijro etish uchun noqulay sakrashlar, ovozlarning kesib o'tishi, shuningdek, akkordlarning keng joylashuvi ijro jarayonida qiyinchilik tug'diradi, lekin ko'z yugurtirib o'qishda buning hammasi erkin va oson tuyuladi.

Partiturani «ichida» o'qish tez va qulay bo'lgani sari cholg'uda ijro etayotganda, har bir ovozning akkordlarida va shiddat bilan jaranglash darajasida ovoz tembrining rang-barangligini farqlash yengil kechadi (registrga bog'liq holda).



www.ziyouz.com kutubxonasi

Xor partiturasini ko'z yugurtirib o'qish bilan birga uning barcha ohangini ichki eshitish qobiliyati bilan sezish — eng qiyin partitura o'qish turlaridan hisoblanadi. O'quvchidan, avvalambor, yaxshi rivojlangan eshitish qobiliyati va musiqiy xotirani talab qiladi. O'quvchi uzoq vaqt diqqat qilishi kerak. Bu ishning samaradorligini oshirish uchun to'liq jimlik zarur. Aks holda o'quvchida asar haqida noto'g'ri tushuncha hosil bo'lishi mumkin.

## Uchinchi bob

# FORTEPIANODA XOR PARTITURALARINI IJRO ETISH TAMOYILLARI

### 1-§. FORTEPIANO IJROSIDA XOR PARTITURASINING ESHITILISHI

Xor partiturasini fortepianoda ijro etish qay darajada bo'lmasin xor asarining to'laqonli mazmunini ifoda eta olmaydi. Fortepiano ovozi bilan xor ijrosidagi ovozlarning dinamik va rang-barang sifatlarini tenglashtirib bo'lmaydi.

Partituranі fortepianoda chalishdan maqsad, avvalambor, yangi xor asarini ijrochi va tinglovchilar tanishishi uchun, qolaversa, ijro vaqtida asarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Fortepianoda quyidagi partituralarni: xor uchun «a capella» va turli cholg'ular jo'rligida, bir yoki bir nechta yakkaxonlar ishtirokidagi asarlarning yoqimli ohanglari va keskin harakatlarini ifoda eta olish mumkin.

Ijrochi fortepiano chalishda kerakli ko'nikmalarga ega bo'lsa, murakkab bo'lmagan qo'shiqni ham, yirik shakldagi professional musiqa asarini ham bir yo'sinda ta'sirchan ifodalay olishi mumkin.

Fortepiano ijrosida tovush kuchining turli xarakterlariga erishish mumkin (nozik *pianissomo*dan kuchli *fortissimo*gacha).

Fortepiano chaluvchi ton balandligini o'rnatish haqida qayg'urmaydi. Aniq klavishni bosish to'g'ri tonni ko'rsatadi. Fortepiano hech qanday qo'shimcha cholg'ularni talab qilmaydi: bir kishining ijrosi orqali butun xor va orkestr ijrosini yetarlicha tasavvur qilish mumkin. Xorda kuylashga qaraganda fortepianoda xor partiturasini chalishning o'ziga xos afzalliklari bor. Fortepiano xorga nisbatan cholg'uchiga ijro etish erkinligi, ohangning boy imkoniyatlarini ochib beradi, fortepianoda zerikarli qaytarishlar ancha kam; eng yuqori va past tovushlar ahamiyat kasb etmaydi; ovozlarning ansamblga erishishi va akkordlar jaranglashining muvozanat kuchiga erishishi osonroq kechadi. Cholg'uchi tartibni saqlash va h. k. lar haqida qayg'urmaydi.

Yaxshi texnik darajaga ega bo'lgan cholg'uchi fortepianoda garmonik tuzilish va akkordlar fonida melodik ovozlarni aniq ajratib berishi mumkin.

Fortepianoda ijro etishda xor bilan ishlash uchun kerak bo'lgan partituranі turli intervallarga va tonalliklarga ko'chirish mumkin. Xor va cholg'u jo'rligi uchun mo'ljallangan partituraning yangrashini fortepianoda bitta ijrochi ko'rsata olishi mumkin.

Maxsus ijro ko'nikmalariga ega bo'lgan ijrochi fortepianoda cholg'u partiyalarining ayrim lavhalarida cholg'ularga xos ijro xususiyatlarini, ularning ohangini (truba, trombon, fagot, klarnet, organ va b.q.) va xor kuylashini ko'rsatib berishi mumkin.

Fortepiano juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lganligi uchun ham boshqa cholg'ularga qaraganda xor bilan ishlash jarayonida xor partiturasini o'qish va dirijyorlikni o'rganishda foydalaniladi.

### 2-§. ZARURIY KO'RSATMALAR VA PARTITURANI FORTEPIANODA IJRO ETISHNING MUVAFFAQIYATLI SHART-SHAROITLARI

Xor partiturasini fortepianoda yaxshi ijro etish uchun avvalambor o'quvchining qo'llari sog'lom, nozik va harakatchan bo'lishi kerak.

Fortepianoni yaxshi saqlash uchun uni yaxshilab sozlash va uning mexanizmlarini puxta boshqarish zarur. Partitura o'qish malakasini yaxshi o'zlashtirish o'quvchidan yaxshi eshitish qobiliyatini talab qiladi. Ijrochida me'yoridagi eshitish qobiliyatini o'stirishda fortepiano muhim rol o'ynaydi.

Fortepianoning hamma torlari yaxshi jaranglaydigan va dempfer[1] bo'lishi kerak. Fortepiano ichida va ustida ortiqcha narsalar turishi kerak emas, aks holda ijro vaqtida ortiqcha g'ijirlashlarga sabab bo'ladi. Partituranі yaxshi ijro etish ko'pincha ijrochining fortepiano oldida to'g'ri o'tirishiga ham bog'liq. Bunda o'quvchining o'tirish joyi va holati muhim rol o'ynaydi.

---

[1] D e m p f e r — torlar ustida joylashgan maxsus ovoz pasaytirgichlar.



TERMIZ SAN'AT KOLLEJI
INVENTAR № 17736
AXBOROT RESURS MARKAZI
17736
www.ziyouz.com kutubxonasi

Fortepianoda ko'p qatorli partiturani chalganda ijrochining gavdasi klaviaturadan ancha uzoq bo'ladi. Buning evaziga ko'zlar partituraning barcha partiyalarini bir vaqtning o'zida ko'ra oladi.

Ijro vaqtida tirsaklar klaviaturadan balandroq joylanishi kerak, shunga qarab yelka va gavda ozgina oldinga egilgan bo'lishi lozim. Buning uchun tirsaklar klaviaturadan uzoqroqda joylashishi kerak.

Fortepiano yonida o'tirganda kursi suyanchig'iga suyanmaslik tavsiya etiladi. Gavda bemalol har tomonga harakat qilish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Ijrochi kursi tanlashda royalning klaviaturasi va pol oralig'ini hisobga olishi kerak.

Xor partiturasining musiqiy mazmunini xor kuylashiga yaqinroq yetkazish uchun ijrochi turli xarakter va tembrdagi ohanglarni ijro etishga yo'naltirilgan malaka va imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Bularning hammasiga ijro etishda qo'llarni ongli ravishda yo'naltirish orqali erishiladi.

Ijroda barmoqqa butun qo'l harakati, shuningdek, yelka va gavda yordam berishi kerak. Yengil partitura lavhalarida, harakatchan yoki go'zal musiqada qo'llar yengil va ko'tarilganday bo'lishi kerak. Baland tovushlarni ajratib ko'rsatish va kuchli zarblar talab qilingan joyda qo'llar va barmoqlar ancha egiluvchan va og'ir bo'lishi, yelka va gavda esa ozgina oldinga egilib, barmoq va qo'llarga zarur tayanch bo'lib xizmat qilishi kerak.

Akkordlarni chalganda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim: partiturada qanday qiyin akkord bo'lmasin, uni hech qanday qo'l, yelka va butun tana qiyinchiligisiz chalish kerak. Bu holat akkordni chalgunga qadar saqlanib qolishi lozim, klavishlarni juda qisqa bosganda mushaklar tortilish va cho'zilish holatiga keladi. Keyingi akkordga qadar mushaklarni erkin holatga qaytarish kerak.

Barmoqlarning oq klavishdan qora klavishga yoki teskari harakatida ortiqcha harakatni kamaytirish uchun oq klavishni chaluvchi barmoqlarni qora klavishga yaqinroq joylashtirish lozim. Bir vaqtda yoki almashinib u yoki bu klavishda chalinsa, oq klavishdagi barmoqlarni qora klavishlar orasiga qo'yish tavsiya etiladi. Bunga ko'nikma hosil qilish uchun asar lavhalarini alohida, keyinchalik esa, butun asarni qo'shib, og'ir sur'atda chalish kerak.

Ijrochi notaga qarab yoki yoddan chalganda klavishga qaramasdan ko'rishni o'zida tarbiyalashi juda muhim hisoblanadi. Bunday ko'nikmaning yo'qligi asosan notaga qarab chalishni qiyinlashtiradi; nota o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga ham ma'lum darajada xalaqit beradi. Klavishga qarash zarurati tug'ilganda boshni egmasdan tez qarash kerak.

## 3-§. BIR QATORDA YOZILGAN PARTITURANING IJRO XUSUSIYATI

Bir qatorda yozilgan asar asosan bir turdagi xor — ayollar, bolalar yoki erkaklar xori uchun mo'ljallanadi. Odatda bunday asar skripka kalitida yoziladi.

Ayollar xori uchun mo'ljallangan asardan hech bir o'zgarishsiz erkaklar xorida ham foydalanish mumkin. Lekin erkaklar ijrosida asar bir oktava past eshitiladi.

Shunga muvofiq har bir qatorli xor partiyasi fortepianoda chalinishi mumkin: a) ayollar yoki bolalar uchun asar va b) shu kabi erkaklar uchun asar. Ijro erkaklar ovozi uchun mo'ljallansa, fortepianoda bir oktava past chalinishi kerak. Misol uchun B. Lutfullayevning «Firoq» turkumidan «Qabog'ing yaxshi» (erkaklar xori uchun) va «Bilmas edim» (ayollar xori uchun) qismlarini ko'rib chiqish mumkin[1].

Bir qatorda yozilgan partitura nazariy jihatdan ijro etish uchun bir turdagi xorning har biriga to'g'ri keladi. Musiqa va matn mazmuniga qarab aksariyat bir qatorli partituralar faqat erkaklar, ayollar yoki bolalar xori uchun to'g'ri keladi.

Bir qatorli partiturani o'qishga aniqlik kiritish xor va fortepiano ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi. Partiturani u yoki bu oktavada ijro etish shunga bog'liq. Bundan tashqari, bir nechta turli ovoz xarakterlari ifodalanishi kerak. Masalan, fortepiano ijrosida ayollar va bolalar ovozi erkaklarnikiga qaraganda ancha yengil va jarangli eshitiladi. Asosan partitura birinchi oktavada chalinadi.

Erkaklar xori ijrosi uchun mo'ljallangan asar partiturasi bir oktava past eshitiladi. Asosan bunday partitura kichik oktavada chalinadi. Ijroda ayollar va bolalar ovozi erkaklar ovozidan ancha kuchli va to'liq bo'ladi.

Bir qatorli xor partiturasi yozilishining yana bir xususiyati shundaki, uni ayollar, bolalar va erkaklar xori birgalikda ijro etish imkoniyatiga ega. Bunday hollarda kuylash ikki xor tomonidan amalga oshirilganga o'xshaydi — erkaklar va ayollar yoki bolalar xori — ikki «qatlamda». Xor birgalikda yoki ketma-ket kuylashi, unda yakkaxon alohida va keyinchalik xor bilan birga kuylashi mumkin.

Bundan tashqari qo'shiq ayollar yoki erkaklardan biri tomonidan boshlab berilishi mumkin: **a)** hamma bandlarda ayol yoki erkak; **b)** birin-ketin — bir bandda ayol, ikkinchisida erkak va **v)** ikki xorning ikkinchi ovoz partiyalari birgalikda.

[1] Ilovaga qarang.


www.ziyouz.com kutubxonasi

Bularning hammasi fortepianoda o‘z ifodasini topishi yoki galma-gal tegishli oktavalarda (ayollar ovozi bo‘lsa — birinchi, erkaklar ovozi bo‘lsa — kichik) bayon etilishi lozim. Agar ovozlar birgalikda kuylasa, oktava unisonda chalinishi kerak.

M. Bafoyevning «Maqom sadolari» xor uchun poemasidan «Ufor» qismining 9—14-taktlarini misol sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Har qanday partituraning fortepiano ijrosi (shuningdek, bir qatorli partitura ham) imkon qadar xor ohangiga yaqin bo‘lishi kerak. Fortepiano ijrosini xor ohangiga o‘xshatish uchun ijrochi cholg‘uning barcha kerakli imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga intilishi kerak.

Partiturani fortepianoda chalganda musiqaning adabiy matn bilan munosabatidan paydo bo‘lgan jumlalarning xususiyatlari va kuylovchilarning nafas olish tartibi ifodalangan bo‘lishi kerak. Bularning hammasini partitura chalish mashg‘ulotining boshida hal qilish mumkin. Mashg‘ulotlarning boshlanishida bir qatorda yozilgan xor asarlaridan foydalanish qulay.

## 4-§. IKKI QATORDA YOZILGAN PARTITURANI CHALISH XUSUSIYATLARI

Ikki qatorli nota yo‘li tizimida ayollar yoki bolalar xori uchun, erkaklar va aralash xor uchun mo‘ljallangan asarlar partiturasi yoziladi.

Qaysi xor turi va xili uchun mo‘ljallangan asar bo‘lishidan qat’i nazar, partituraning yuqori qatorini o‘ng qo‘l, pastki qatorini esa chap qo‘l chaladi.

Ovoz tarkibi noaniq bo‘lgan ikki qatorli partituralar matn mazmuniga qarab ayollar yoki bolalar xori bilan, erkaklar va qo‘shilgan tarkibda erkaklar va ayollar ovozi bilan birgalikda kuylanishi mumkin.

**Родина**

Русская народная песня

*И. Шишов*

**Умеренно, широко**




Keltirilgan misol shunday asarga namuna bo‘la oladi.

Qo‘shiq boshlovchining kuylashi bilan boshlanadi. Uni yuqori ovoz ijro etadi. Faraz qilaylik bu soprano. Bu kuyni fortepianoda o‘ng qo‘lda chalish lozim.

Qo‘shiqning birinchi lavhasi «...приволье», ikkinchisi esa «...поля» so‘zlari bilan yakunlanadi. Har bir lavhani, xuddi bir nafasda kuylagandek, to‘xtovsiz ohangda chalish kerak. Boshlang‘ich lavhada bunday noo‘rin tanaffus payti ikkinchi taktda — *lya* tovushidan (choraktalik nuqtasi bilan «e» bo‘g‘inida) o‘tishda yechiladi. Bu xavfdan osongina o‘tish mumkin. «Чудное» so‘zida *si bemol, sol va lya* notalari 3-, 1- va 5-barmoqlar bilan yengil chalinadi, 5-barmoqda «приволье» so‘zidan keyin 4-, 3- va 1- barmoqlar erkin va bog‘liq holda lavhani yakunlaydi. She’riy matnda «приволье» so‘zidan keyin vergul turibdi. Bu yerda



www.ziyouz.com kutubxonasi

musiqa ijrosida qisqa tanaffus kerak. Ma'no mazmuni bilan bir qatorda qisqa tanaffus keyinchalik ijro uchun ham zarur; boshlovchi-yakkaxondan bu vaqtda nafas almashtirish talab qilinadi.

«...поля» so'zidan keyin yana tanaffus qilish kerak. Bu vaqtda nafas olish va qo'lni keyingi ijro uchun tayyorlash zarur.

Keyingi lavhada ikkinchi ovoz harakatga tushadi. Uni chap qo'l ijro etadi. «...Russkaya» so'zining ikkinchi va uchinchi bo'g'inlarida ikki ovoz qo'shilib, unison bo'lib kuylaydi. Bu so'zning «ifodasini» buzmaslik uchun ikki ovozning *sol* va *lya* unison tovushlarini ham ikki qo'l bilan chalish qulayroq.

Birinchi bandning yakunlovchi lavhasini (*sol* tovushidagi unison) va oxiridan bitta oldingi taktdagi *mi* tovushini ikki qo'lda ham ikkinchi barmoqlar bilan birgalikda ijro etish kerak. Oxirgi taktda esa *re* unison chalinishi kerak.

Ba'zi ayollar va bolalar xori uchun yozilgan ikki qatorli partituralarning musiqa matni yozilishiga qarab ijroda ikki qo'l ishtirokini talab qilmaydi. Ikki qator ham bemalol o'ng yoki chap qo'l bilan chalinishi mumkin.

Shu bilan birga ko'pgina ayollar va bolalar xori uchun yozilgan ikki qatorli partituralarda o'ng va chap qo'l ijrosi uchun mo'ljallangan nota qatorlarini taqsimlashning umumiy qoidasidan chetlanishga to'g'ri keladi.

Ko'pincha chap qo'l o'zining ovoz qatorini chalish bilan birgalikda yuqori qatorda joylashgan bir va bir nechta ovoz qatorlarini ham chalishi mumkin.

Aksincha, o'ng qo'l o'z ovoz qatorini chalish bilan birgalikda chap qo'lga yordam berishi mumkin. Bunday holat ko'pincha ovozlarning bir oktava intervalidan kengroq masofada ikki tomonga ketishida yuz beradi.

Erkaklar xori uchun yozilgan asarlarning ikki qatorli partiturasida ikkiga bo'lingan (divisi) asosiy ovoz, albatta, ikki qo'lda chalinishi kerak. Ko'pincha u yoki bu qo'l, o'zining ovoz partiyasini chalish bilan birga, boshqa qatordagi o'rta ovozning alohida tovushlarini yoki butun lavhalarini chalishiga to'g'ri keladi. Bu holni partitura ovozlari keng joylashuvga o'tishi yoki ularning bog'langan holda yangi partiyalarga bo'linishida ko'rishimiz mumkin.

Aralash xor uchun ikki qatorli partituralar tashqi ko'rinishidan ikki qatorli erkaklar xori partiturasiga o'xshaydi. Unisida ham, bunisida ham ovoz partiyalarini yozishda ikkita kalit qo'llanilgan; partituraning yuqori qatorida — skripka, pastkisida esa bas kaliti.

Aralash xor partiturasining yuqori va pastki qatori ijroga muvofiq yoziladi. Aralash xor uchun qolgan hamma ikki qatorli partituralar xuddi ikki qatorli erkaklar partiturasi singari o'ng qo'lda yuqori, chap qo'lda esa pastki qatorlar chalinadi. Zarurat tug'ilganda, qo'llar bir-biriga yordam beradi.

## 5-§. UCH QATORDA YOZILGAN PARTITURALARNING IJRO XUSUSIYATLARI

Uch qatorli nota yo'li tizimida yozilgan asarlar turli xorlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin: bolalar, ayollar, erkaklar xorlari, to'liq va to'liqsiz xor uchun. Shuningdek, yuqorida sanalgan xor ishtirokida yakkaxon uchun alohida mustaqil nota qatori ajratilgan bo'lishi mumkin.

Uch qatorda yozilgan xor partituralari 4, 5, 6 ovozli partiyalarga bo'linishi mumkin. Ayollar xori uchun uch ovozli asar ko'pincha ikkita — soprano va bitta alt partiyalaridan yoki kamdan-kam soprano va ikkita alt partiyalaridan iborat bo'ladi.

Erkaklar uchun uch ovozli asarlar orasida ko'pincha ikkita partiya tenor va bitta bas partiyasi yoki kamdan-kam hollarda bitta tenor va ikkita bas partiyalari uchraydi.

Uch ovozli bo'lgan va ovoz partiyalari o'zgaruvchan (soprano, alt va tenor yoki alt, tenor va bas) to'liqsiz aralash xor uchun yozilgan asarlarga uch qatorli partituraning bayon etilishi xos.

Uch qatorli partituralarda yuqori va o'rta nota qatorlari o'ng qo'l bilan, pastki qator esa chap qo'l bilan chalinadi. O'rta qator ovozlari yuqori ovoz partiyasidan katta intervalga ajralgan bo'lsa, o'rta ovoz partiyasi chap qo'lda chalinadi.

O'rta ovoz partiyasining boshqa qo'lga ko'chishi ba'zan ijroda ovoz yo'nalishini yaxshi saqlash va jumlalarda noo'rin uzilishlardan qochish maqsadida ham qo'llaniladi.

To'liq bo'lmagan uch qatorli partiturada asar (bas ishtirokisiz) ayollar ovozi partiyalari — soprano va alt — yuqori va o'rta nota qatoriga muvofiq o'ng qo'l bilan chalinadi. Partituraning pastki qismi tenor partiyasi yozuvi bilan (qoidaga ko'ra — skripka kalitida) chap qo'lga chalish uchun topshiriladi. U bir oktava past o'qiladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## Тихой ночью




Quyida keltirilgan misolda kerakli aplikaturalar qo‘yilgan. Asarning u yoki bu lavhasida o‘rta ovozning partiyasi qaysi qo‘l bilan ijro etilishi maxsus belgilar (⌈ ⌊) bilan ko‘rsatilgan. Burchagi pastga qaragan belgi bilan ko‘rsatilgan nota o‘ng qo‘l bilan ijro etilishi, burchagi yuqoriga qaragan belgi bilan ko‘rsatilgan nota esa chap qo‘l bilan ijro etilishi kerak.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## У меня ль во садочке

Русская народная песня

Обработка *А. Юрлова*

**Оживленно**




Erkak va ayollarning yuqori va past ovozlarini (soprano, alt, tenor, bas) o‘zida birlashtiruvchi aralash xorlar to‘rt ovozli xor hisoblanadi. Aralash xor uchun yozilgan asarning uch qatorli bayonida ba’zan alt ovozi soprano partiyasi qatorida yoki tenor ovozi bas partiyasi qatorida yoziladi. Ko‘pincha ayol ovozlari yuqori nota yo‘lida, tenor esa alohida qatorda yoziladi.

## 6-§. TO‘RT QATORLI PARTITURA YOZUVIDA IJRO USLUBLARI

Xor asarlarining to‘rt qatorli partituralari kamida to‘rtta mustaqil ovoz partiyalaridan iborat bo‘lishi kerak. Aralash xor tabiatan to‘rt ovozga ega, shuning uchun ham to‘rt qatorli partitura yozuvi keng tarqalgan.

Bir turdagi xorlarda (erkaklar, ayollar va asosan bolalar xorlarida) to‘rt ovozlik asosiy ikkita ovozning qo‘shimcha bo‘linishi (divizi)dan vujudga keladi. Bunday bo‘linish natijasida hosil bo‘lgan yangi ovoz partiyalarining diapazoni bir-biriga yaqin bo‘lib, odatda tembr jihatdan kam farqlanadi. Xordagi har bir partiya o‘zining mustaqil ahamiyatini yo‘qotmasligi uchun xor mukammal rivojlangan, yetarli qo‘shiqchilar soni va sifatli ovoz tarkibiga ega bo‘lishi kerak.

Aralash xor uchun yozilgan asarlar material jihatdan juda sodda bo‘ladi. Bir turdagi va to‘liqsiz aralash xorlarning to‘rt qatorli nota yo‘li tizimida yozilishi, asarning ovoz partiyalari diapazonidan keng foydalanish, rivojlangan musiqiy shaklda garmoniya va polifoniya vositalarini keng qo‘llash kabi murakkab munosabatlar mavjudligidan dalolat beradi.

«Yoringman» deb nomlangan o‘zbek xalq qo‘shig‘i (B. Umidjonov xor uchun moslashtirgan) bunga misol bo‘la oladi.






www.ziyouz.com kutubxonasi




Ba’zi hollarda keng oraliqdagi bas ovozlari forshlag bilan olinadi. Bu tovush pedal yordamida cho‘zib turilib, ko‘rsatilgan vaqtda tezda akkordni o‘chiradi.

## Слёзы

*М. Коваль*




O‘ng pedalning bunday qo‘llanilishi applikatura chegaralari va qo‘lning ijro imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Natijada akkordning bir vaqtda eshitilishiga imkon beradi.

Ikkinchi lavhada ham o‘ng pedal birinchi lavhadagi vazifani bajaradi. Farqli tomoni shundaki, bunda bas bilan bir vaqtda forshlag va unga yaqin yuqori ovoz olinishi tavsiya etiladi. Bunday vazifani uddalay olish katta ahamiyat kasb etadi. Pedaldagi bu usulni egallash jarayonida quyidagi xatolardan qochish muhim hisoblanadi:

1. Ko‘rsatilgan usul bilan olingan akkord va basga oldingi akkord yangrashining «qavatlanishi».
2. Pedal harakatining oldinroq to‘xtalishi va forshlag bilan olingan bas ovozi yangrashining yo‘qolishi.
3. Vaqt jihatdan forshlag bilan olingan basning butun akkorddan alohida olinishi.

Ba’zi xor uchun yozilgan asarlarga jo‘r bo‘luvchi fortepiano partiyasidagi akkordlarni t r e m o l o qilib, ya’ni tez, ko‘p marotaba goh pastga, goh yuqoriga chalish lozim.

Pedalning tremoloda vazifasi — akkordning ketma-ket kelgan tovushlarini bir yaxlitlikka mujassamlash, to‘xtovsiz yangrashni ta’minlashdir. Baslarda u muntazam guvillashni, yuqori diapazondagi ovozlarda bir maromdagi qaltirashni, past dinamikada (*p*) esa yumshoqlikni eslatishi lozim.



www.ziyouz.com kutubxonasi

«Osvensim» oratoriyasidan

2-qism

**Andante moderato** *H. Rahimov*




## 7-§. KANON

K a n o n so'zi grekcha bo'lib, qonun, namuna yoki mezon ma'nosini anglatadi. Musiqa asarlarida kanonlar mavjud bo'lsa, o'rnatilgan qat'iy qonunlarga rioya qilib ijro etish kerak.

O'zgacha tuzilishga ega asarlar singari kanonlar birinchi bor bundan to'rt yuz yil oldin paydo bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan kanon yozish san'ati yuqori darajada rivojlandi.

Kanonlar ikki, uch, to'rt, besh va ko'p sonli ovozlarga yoziladi. Shunga muvofiq, ular ikki ovozli, uch ovozli va hokazo deb ataladi.

Shuningdek, kanonlar mavzu soniga qarab ham ajratiladi. Kanon bitta mavzudan tashkil topgan bo'lsa, oddiy, ikki mavzuli bo'lsa, ikkitalik, uch mavzuli bo'lsa, uchtalik va h. k. deyiladi.

Oddiy kanonlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, nechta ovoz partiyasiga mo'ljallangan bo'lishidan qat'i nazar, unda ohang hamma ovozlar uchun bir xil bo'ladi. Kanon mavzusini ijro etishda ovoz partiyalari birin-ketin qo'shiladi, natijada ko'p ovozlik paydo bo'ladi. Kanonda har bir keyingi ovozning boshlanishi raqamlar (1, 2, 3 va h. k.) yoki tartibli alfavit harflari bilan, ba'zan esa, ovoz partiyalarining bosh harfi bilan (S — soprano, A — alt, T — tenor, B — bas) belgilanadi. Masalan, uch ovozli oddiy kanonning xorda ijrosi quyidagicha bo'ladi: yuqori ovoz partiyasi (yoki dirijyor ko'rsatgan biror-bir ovoz guruhi) ohangni boshlab beradi. 2 soni bilan (yoki alfavitning tartibli harfi bilan) belgilangan joyda kuylayotganlarga ovozlarning ikkinchi partiyasi qo'shilib, ohangni boshidan kuylashni boshlaydi. Bu paytda birinchi partiya ohangni davom ettirib boradi. Birinchi ovoz partiyasi 3-raqamga, ikkinchi ovoz partiyasi esa 2-raqamga (yoki shunga muvofiq alfavit harfiga) yetganda, uchinchi ovoz guruhi qo'shilib ohangni boshidan kuylaydi. Uchinchi ovoz guruhi qo'shilishi bilan uchala ovoz guruhi yoki vokal ansambl kanoni (ohangning turli qismlari) birgalikda kuylanadi. Birinchi guruh ohangni oxirigacha kuylagach, oldingi matn bilan yoki ikkinchi band bo'lsa — yangi band bilan matnni boshidan qaytaradi. Ikkinchi va uchinchi ovoz guruhlari ketma-ket xuddi shu vazifani bajaradi. Ikkinchi yoki uchinchi qaytarishdan keyin (dirijyorning ko'rsatmasi bo'yicha yoki ijrochilar kelishilgan holda) ijro guruhlari qanday tartib bilan qo'shilgan bo'lsa, shunday chiqib ketadi: boshida 1-, keyin 2- va oxirida 3-.

1, 2, 3 va h. k. sonlar bilan belgilangan har bir kanonning mavzusi alohida qatorlarga ajratilib, ular birin-ketin taqsimlanadi. Bu esa kanonda mavjud ovozlarning (3, 4, 5 va b.q.) ijroda bemalol uyg'unlashuviga imkon beradi.

Kanonlarni fortepianoda ijro etishda, kuylagandagidek, nota yozuvining o'qish tartibiga rioya qilinadi. B. Lutfullayevning «Bilmas edim» asarining 16—19-taktlari bunga misol bo'la oladi[1].

[1] Ilovaga qarang.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# 8-§. CHOLG'ULAR JO'RLIGIDA XOR PARTITURALARINI IJRO ETISH USLUBI

Mustaqil ijro etiluvchi (yoki a'capella) xor asarlari bilan bir qatorda cholg'u jo'rligida ijro etiluvchi xor asarlari ham ko'p.

Ko'pgina xor asarlari u yoki bu tarkibdagi cholg'u orkestri yoki ansambllar jo'rligida yozilgan. Lekin fortepiano boshqa cholg'ularga qaraganda butun orkestr xususiyatini o'zida mujassam etish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, xor va orkestr uchun mo'ljallangan asarlar fortepiano bilan ijro etishga moslashtiriladi.

Cholg'u jo'rligidagi xor asarlari ustida ishlash jarayonida xor va cholg'u partiyalarini alohida va ikkalasini mujassamlagan holda ijro etishga to'g'ri keladi. «A'capella» uchun yozilgan partiturani fortepianoda ijro etishda qanday ijro usullari mavjud bo'lsa, xor va cholg'u asboblari uchun yozilgan partituraning xor qismini cholg'u jo'rligisiz ijro etishda ham shu usullar amalga oshiriladi.

Asarning jo'rovoz partiyasi juda aniq ijro etilishi kerak — qo'shiqdan oldinga o'tmasligi, orqada ham qolmasligi kerak. Ijro ohang va ritmika jihatidan aniq, barcha nota va pauzalarning cho'zimlariga rioya qilgan holda bajarilishi lozim. Xor kuylanishiga muvofiq ijroda sezura hamda lavhalar orasidagi nafas almashuvlariga amal qilinishi lozim.

Asarning xor qismiga nisbatan jo'rovoz partiyasi nisbatan past yangrashini har doim inobatga olish kerak.

Asarning cholg'u kirish qismi va xotimasi, shuningdek, lavhalarning bog'lanishida (xorda pauza bo'lganda) jo'rovozning dinamikasini kuchaytirish mumkin. Ayrim partituralarda cholg'u jo'rligini ijro etish ma'lum texnik qiyinchiliklarni tug'diradi. Juda murakkab joylarda ba'zan ijroni yengillashtiruvchi o'zgartirishlar kiritish mumkin. Masalan, uzoq vaqt bir qo'ldagi oktavali harakatlarni melodik harakatga mos unison bilan almashtirish mumkin. Ko'p hollarda yuqori va pastki ovoz yo'llarining melodik ohangini tez tersiya qilib chalish mumkin. O'ng qo'l partiyasining oktavali to'rt ovozli akkordlari to'liq chalinmasligi mumkin. Bir oktavadan boshqasiga o'tilishi va hokazolar ayrim partituralarning haddan tashqari yengillashtirilganligini ko'rsatadi.

T. Sodiqov va R. Glierning «Layli va Majnun» operasidan «To'y xori» misolida fakturani yengillashtirish usullaridan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.




Misoldagi jo'rovozning o'ng qo'l partiyasida *sol, lya, si, do* va boshqa tovushlar ikkilangan ko'rinishda keladi. Bunda partiyadagi akkordlarning ikkilangan ko'rinishda qo'llanilgan tovushlarini chalmaslik mumkin.

Chap qo'l partiyasida oktava va undan ham kengroq intervallarga sakrashlar, shuningdek, parallel oktavali harakat mavjud.

Yuqorida eslatilganidek, cholg'u jo'rligidagi xor partituralari nafaqat cholg'u yoki vokal qismlariga bo'lingan holda, balki birgalikda ham fortepianoda ijro etiladi.

Partitura matnining to'liq ijrosi katta amaliy ahamiyat kasb etadi — ijrochi va tinglovchilarga asarning musiqasi haqida to'liq taassurot beradi, asar mazmunini o'rganish jarayonini tezlashtiradi va yengillashtiradi. Xor bilan ishlash jarayonida partituraning vokal qismida ijro ovozni qo'llab-quvvatlaydi, cholg'u ijrosi esa qo'shiqchilarni jo'rovoz partiyasining ohangli xususiyatlariga o'rgatadi.

Partituradagi xor va cholg'u qismlarning to'liq ijrosi umumlashtirilgan ijroning maqsadga muvofiq shakli hisoblanadi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# To‘rtinchi bob
# PEDALIZATSIYA

## 1-§. FORTEPIANO PEDALLARI

P e d a l deb musiqa cholg‘usining oyoq bilan boshqariladigan tashqi tortish moslamasi qismiga aytiladi (lotinchada «pedalis» — oyoqli ma’nosini bildiradi).

Royal va pianinoda odatda ikkita pedal bo‘ladi.

O‘ng pedalning bosilishi bilan barcha dempferlar ko‘tarilib, torlarning tebranishi tugamaguncha ovoz cho‘ziladi. Natijada tovushlar to‘liq, aniq va yorqin eshitiladi. Chap pedal bosilishi bilan esa royalning bolg‘achalari o‘ng tomonga harakatlanib, uchta bir xil sozlangan torlarga emas, balki ikkita yoki bitta[1] torga uriladi. Bundan tovushning kuchi ma’lum darajada kamayib, cholg‘uning tembr ohangi sezilarli darajada o‘zgaradi[2].

## 2-§. PEDAL YORDAMIDAGI IJRO QULAYLIKLARI

Fortepianoda xor partiturasining ijrosida pedalning ishtiroki katta badiiy ahamiyatga ega.

O‘ng pedalning to‘g‘ri qo‘llanilishi fortepiano sadosiga xushohanglikni baxsh etadi. Bu ijro paytida ohangning to‘laqonli yangrashiga imkon yaratadi va ovoz kuchini hamda cho‘zimini sezilarli darajada oshiradi.

Chap pedaldan yumshoq va yengil tovushlarni hosil qilish maqsadida foydalaniladi.

Ijroda to‘satdan ohangni «o‘chirish»da, «aks sado» effektlarini hosil qilishda, turli xil ovoz tembrlarini taqqoslash maqsadida chap pedaldan foydalaniladi.

Chap va o‘ng pedallarning mexanizmlari harakatda bir-biriga bog‘liq bo‘lmaganligi uchun ham ular partitura ijro etishda birgalikda qo‘llanilishi mumkin. Bunday hollarda cholg‘uning ohangi yana o‘ziga xos rang-baranglikni beradi. Tonlarning yorqin xarakteri saqlanib qolinadi, lekin yumshoqroq yangraydi. Ohangda kuychanlik va bo‘g‘iqlik birlashadi. Fortepianoda xor partiturasini ijro etishda birgalikda ikkala pedaldan foydalanish — «yarim ovoz»da yoki «yarim kuch»da kuylashga taqlid qiladi. Lavhalarda xor va cholg‘u jo‘rligining almashinuvi, qolaversa, garmoniyada, usulda, bezaklarda va h. k. larda, turli qarama-qarshiliklarni ajratib berishda chap pedaldan samarali foydalanish mumkin.

Pedaldan foydalana bilish katta amaliy ahamiyatga ega. U xor partiturasi ijrochisini turli xil badiiy ifodaviy vositalar bilan ta’minlaydi.

## 3-§. PARTITURADA PEDAL YOZUV BELGILARINING QO‘LLANILISHI

Ko‘zga yaxshi tanish bo‘lgan o‘ng pedal harakatining boshlanishida qo‘yiladigan belgi — *Pedal* so‘zi ko‘pincha qisqartirilgan holda *Ped* yoki *P* sifatida belgilanadi.

O‘ng pedalning har bir yakunlanuvchi harakati (uni oldingi holatga qaytarish) yulduzcha (*) bilan belgilanadi.

*Ped* (yoki *P*) belgisi va yulduzcha orasidagi masofa o‘ng pedalning bir harakati orasidagi masofani bildiradi. Ba’zan pedalning harakati gorizontal to‘liq, uzilgan yoki nuqtali chiziqlar bilan ajratiladi.

*P*__________*, *P*_ _ _ _ _ _ *, *P*. . . . . . . . . .*

O‘ng pedal harakatlanishining uchta imkoniyati farqlanadi:

a) navbatdagi akkord bilan birgalikda; b) akkorddan oldinroq va v) akkorddan sal kechikib. Shu sababli, belgi a) akkord ostida, b) ancha chaproqda va v) ancha o‘ng tomonda qo‘yiladi.

---

[1] Ayrim royallarda chap pedalni katta va kichik bosish bilan bolg‘achaning ikkitalik yoki bittalik torda urilishini boshqarish mumkin. Bu imkoniyatni bilgan holda ijroda har zamonda qo‘shimcha badiiy bezak sifatida foydalanish kerak.

[2] Fortepiano chap pedalining bosilishi bilan barcha bolg‘achalar torlarga yaqin joylashadi va bolg‘achalar silkinishining kamayishi bilan torlarda ularning urilishi sustlashadi, natijada tovush pastroq eshitiladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Toshkent taronasi**

**Tempo di valse** *H. Rahimov*




Pedallarning bunday harakatlanishini shartli ravishda birinchi holatda «bevositali» yoki «akkordli pedal», ikkinchi holatda «erta tushuvchi pedal» va uchinchisida — «sinkopali» yoki «kechikuvchi pedal» deyiladi.

Chap pedalning harakatga kirishi zarurligida — *Una corda* (italyancha — «bitta tor») iborasi bilan, ***«Levaya pedal»*** yoki uning bosh harflari — ***L.P. (yoki Lev.Ped)*** bilan belgilanadi.

Chap pedal harakatining to'xtash belgisi *Tre corda* («uchta tor») yoki ***«Bez levoy pedali»*** (qisqartirib, ***bez.lev.ped. yoki bez.l.p.***) belgilari bilan belgilanadi.

Quyidagi qo'llanmada barcha asosiy pedalizatsiya usullari yuqorida bayon etilgan belgilar va shartli nomlanishlar yordamida tushuntiriladi.

## Beshinchi bob

# XOR PARTITURASINI FORTEPIANODA CHALISH MAHORATINI OSHIRISH

### 1-§. XOR PARTITURASINI VARAQQA QARAB CHALISHNING MOHIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Xor partituralarini «varaqdan o'qish» deb uni oldindan o'rganib chiqmasdan ijro etilishiga aytiladi. Varaqqa qarab ijro etishning asosiy ko'rsatmalaridan biri — bu chalish tufayli ijrochi notanish asar bilan tanishib oladi. Keyinchalik shu tarzda varaqqa qarab o'qish orqali asarni o'zlashtirish musiqiy va adabiy matn mohiyati bilan birinchi marotaba tanishishning muhim va shartli shakli hisoblanadi.

Ijrochi varaqqa qarab ijro etish bilan bir qatorda o'zining malaka va ijrochilik mahoratini oshiradi.

Asar bilan birinchi bor tanishishda varaqqa qarab o'qish jarayonida ijroning bu barcha sifatlari bo'lmasligi mumkin. Birinchi ijroda ko'pincha kamchiliklarga yo'l qo'yiladi: usulni saqlashda adashadi, zarur tempni ushlay olmaydi, metr almashinuvida va matn rivojlanishida yangi xarakterga o'tishda to'g'ri va kerakli applikaturani qo'llay olmaganligi, o'ng va chap qo'lning to'g'ri taqsimlanmaganligi sababli ijroda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Varaqqa qarab o'qishda to'laqonli mahoratga erishish partitura o'qishni muntazam mashq qilish orqali erishiladi. Bu uchun quyidagi shakl tavsiya etiladi: 1) tahliliy o'qish; 2) sekin qarab chiqib o'qish va 3) o'z tempida ijro etish.

### 2-§. TAHLILIY O'QISH

Bu tarzdagi varaqdan o'qishning asosiy ko'rsatmalari o'z nomida ifodalangan. Asarni bunday tahlil qilish jarayonida ijrochi shoshilmasdan, kerak bo'lsa, ayrim joylarni bir necha marotaba takrorlab va to'xtab partitura notalarini aniqlab olishi lozim. Akkord ketidan akkord kelishini va ular ritmik jihatdan ijroda qanday bo'lishi kerak, qaysi oktavada, o'ng qo'lda nima va chap qo'lda nima ijro etiladi, qaysi qo'l barmoqlari bilan ijro etish qulay, kalit va kalit belgilariga e'tibor berish, ayniqsa, ularning almashinuvida paydo bo'layotgan alteratsiya belgilarini nazarda tutish, ular qaysi tovushga tegishliligini aniqlash va h. k. larni ijrochi o'zida singdirishi kerak.

Bu shakldagi partituraning birinchi tahlili ijrochini musiqaning umumiy jihatlari bilan tanishtiradi. Shu bilan bir qatorda berilgan partituraning murakkabligi qay darajada va ijrochi uchun qanchalik mos kelishini aydinlashtiradi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## 3-§. ASTA-SEKIN O'QIB CHIQISH

Bu turning shartiga ko'ra varaqqa qarab partiturani chalish asta-sekin to'xtamasdan va takrorlashsiz amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu ijro usulining o'ziga xos xususiyatlaridan biri —bu ancha sekinlashtirilgan sur'atda ijro etishdir.

O'qishning quyidagi shaklining asosiy vazifasi ijroda imkon qadar kengroq partiturani batafsil o'qish hisoblanadi. Hozirgina chalgan akkordni, taktni takrorlab chalishdan yoki asarning kattagina lavhasini asar to'liq yakunlanmagunga qadar qaytarishlardan saqlanish kerak.

## 4-§. SUR'ATDA CHALIB O'QISH

Sur'atda chalish uslubida sekin o'qish singari asar boshidan oxirigacha ketma-ket ijro etilishi lozim. Bunda ijro harakatida, sur'atida ko'rsatilmagan to'xtalishlarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Shartli belgilangan sur'atni buzmaslik uchun ijrochi partituraning qiyin joylarida faktura va xarakterning taxminiy qirralarini ko'rsatib berishi mumkin.

**Встрепенитесь, птички-песни**

*Ц. Кюи*




Partiturani chalish nota tahlilida chaqqon harakat qilishni talab etadi. O'qishning bunday shakli oldingilariga nisbatan musiqa partiturasi haqida ko'proq tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi.

## 5-§. VARAQQA QARAB O'QISHNING UCH TURINI GALMA-GAL QO'LLASH USLUBI

Bayon etilgan uchala turni birinchi bor partiturani o'qiganda qo'llashning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Shuning uchun doim uch turning bittasiga murojaat qilish samarasiz natijalarga olib kelishi mumkin.

Bu usullardan quyidagicha foydalanish tavsiya etiladi: ijrochi asarni birinchi bor o'z sur'atida, ikkinchi bor sekin vaznda chalishi kerak. Uchinchisida — murakkab bo'lgan taqdirda esa ayrim joylarda batafsil to'xtalib, takrorlab ijro etish lozim.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Ijro paytida (asarni qismlarga bo'lishda) o'qish turlarining galma-galligi matn murakkabligiga mos kelishi kerak. Masalan, unchalik qiyin bo'lmagan qismlarda asarni o'z sur'atida chalish kerak va nihoyatda murakkab joylarida «tahliliy o'qish» lozim.

O'ta murakkab partituralarda o'qish turlari quyidagicha tartiblanadi:

a) asar haqida umumiy tasavvur qilish uchun o'z sur'atida ijro etish;

b) partitura murakkabligini bilish va ularni bartaraf etish maqsadida tahliliy o'qish;

v) to'xtovsiz ijro mahoratini oshirish, ikir-chikirlarigacha o'zlashtirish va qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida sekin ko'rib chiqish;

g) asar bilan tanishishni mustahkamlash maqsadida o'z sur'atida ijro etish.

Agar partiturani batafsil o'rganish ko'zda tutilmasa, partitura bilan tanishuv yakunlanadi, deb hisoblasa bo'ladi.

## 6-§. VARAQQA QARAB O'QISH MAHORATINI OSHIRISH SHARTLARI

Mashqlarning tizimliligi.

Yangi, noma'lum musiqa matnlarini doimiy ravishda o'qib, tahlil qilib turish kerak. Bu ishga har kuni kamida 15—20 daqiqa (haftada 1,5—2 soat) vaqt ajratish lozim. Har kuni mashq qilishga qaraganda bir-ikki marta bir yarim, ikki soat mashq qilishning samarasi ancha kam bo'ladi.

O'quv materialining rang-barangligi.

Varaqdan o'qish mahoratini oshirishda rang-barang xarakterga ega partitura muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asar uslubiga, musiqiy tiliga va bayon etilishiga taalluqli. Bu masalani to'g'ri hal qilish uchun qo'shiqlarning original bayoni va kompozitorlar tomonidan qayta ishlangan ko'rinishi, mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan xor miniatyuralari va nisbatan murakkab shakldagi vokal cholg'u asarlarining bo'limlari, chet el va zamonaviy kompozitorlarning xor va «a'capella» asarlari bilan asta-sekin tanishib borish lozim.

Har bir o'quvchi ko'rib chiqiladigan xor partituralari orasida ko'pgina tanish partituralarni uchratishi mumkin. Asarlarni ko'rib chiqishning bunday turi juda qiziqarli va foydalidir. Shu bilan birga har kuni oz bo'lsa-da, fortepiano oldida tanish bo'lmagan, yangi asar bilan ham tanishish lozim.

Partitura o'qishda o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini inobatga olgan holda xor dirijyori va maktabning ashula o'qituvchisi turli ko'rinish va xarakterdagi partituralarni tez-tez mutolaa qilib turishlari lozim.

Agar ijrochining kuchi yetadigan asar ustida ishlansa, o'quvchi partituraning xususiyatlarini ancha aniq tahlil qila oladi; applikaturani to'g'ri tanlay oladi, pedallarni o'rinli qo'llay oladi va ijroning boshqa usullaridan unumli foydalanadi.

Partituraning murakkabligida ketma-ketlikning ahamiyati.

Partiturani varaqdan o'qish mahoratining faol rivojlanishi tanlangan partiturada qiyinchiliklarning murakkablashib borishiga ham bog'liq. Ularning ko'tarilish darajasi keskin bo'lishi yoki ba'zi asarlarda turli qiyinchiliklar birdaniga paydo bo'lishi, boshqalarida esa bunday holat yo'qligi kuzatilmasligi kerak. Bir xil murakkablikdagi partituralar ko'p varaqdan o'qilsa ham ko'nikmaning rivojlanishida kam samara beradi.

Mashg'ulotlarni rejalashtirish.

Varaqdan o'qish mashg'ulotini tasodifan emas, balki ma'lum uzoq muddat orasida, masalan, bir yoki yarim yilda, yoki har oyda o'tkazish tavsiya etiladi.

Ish rejasining umumiy jarayonida har bir darsga aniq partituralar doirasi ko'zlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Har bir rejaning bosqichi va sifati o'qituvchi tomonidan nazoratda bo'lishi kerak. Bunday tekshirishlar, birinchidan, varaqdan o'qishning nazorat ostidaligi natijasida olib borilayotgan qo'shimcha amaliyotni, ikkinchidan, ijrochiga bo'lgan e'tiborning yanada kuchliligi natijasida ularni anglagan holda ijro etishini o'zida namoyon etadi.

Barcha ko'rsatilgan sharoitlarda xor asarlarini chuqur o'zlashtirish tajribasi varaqdan o'qish mahoratini oshirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

## 7-§. VARAQDAN IJRO ETISH OLDIDAN PARTITURANI KO'Z YUGURTIRIB KO'RIB CHIQISH

Varaqdan o'qish uchun mo'ljallangan partiturani yoki uning lavhasini ijro etishdan oldin taxminan ko'rib chiqiladi. Partitura xorning qaysi turi va tarkibi uchun mo'ljallanganligi aniqlanadi. So'ngra asarning tonalligi, ijro harakatining o'lchovini aniqlash zarur. Mazkur asarda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ovoz partiyalarining tarkibini aniqlash va bu partiyalar yozilgan kalitlarga e'tibor berish foydali hisoblanadi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Ancha murakkab bo‘lgan joylarga e’tibor berib, asarning ritmik ko‘rinishi, xarakterini aniqlash lozim.

Partiturada uchraydigan u yoki bu tovushlardagi tasodifiy belgilarni, bir taktdan ikkinchi taktga o‘tuvchi ligali tovushlarni xayolan belgilab olish, ohangning bog‘lanishlariga e’tibor berish lozim.

Avvalambor, bu holatda e’tibor tasodifiy alteratsiya belgilariga qaratilgan bo‘lishi kerak; ular harakatining chegarasini aniq tasvirlay olishi kerak.

**«Osvensim» oratoriyasidan**

3-qism

**Allegro moderato** *H. Rahimov*




Undan so‘ng adabiy matnni o‘qish tavsiya etiladi. O‘qish paytida jumlalar chegarasini, xor nafas almashtirishi lozim bo‘lgan joylarni belgilash muhim. Dinamik rang-baranglikka ham e’tibor berish lozim.

Umumiy bayon etilgan joylarda ham dinamik bo‘yoqlardan foydalanish va ijroni bezash kuyni yanada ishonchli yangrashiga xizmat qiladi. Umumiy bo‘yoqlardan foydalanib (*forte, piano, messo forte* va h.k.lar), ulardagi o‘zgarishlarni xotirada saqlashni (*crescendo, diminuendo* va b.q.) va ular qanday ma’no kasb qilishini, qanday ifodali ahamiyatga ega ekanligini hamda qanday musiqali timsollar bilan bog‘liqligini o‘ylab ko‘rish lozim. Shundan so‘ng esa ularni ijroda qo‘llash qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Oldindan ko‘rib chiqish keyingi ijro uchun musiqiy matnni o‘ng va chap qo‘llarga qulay taqsimlash, shuningdek, partituraning ayrim joylarida barmoqlarning taxminiy tartib qo‘llanishini nazarda tutish imkonini beradi.

Oldindan ko‘rib chiqishni muntazam mashq qilish ijrochiga varaqdan o‘qish mahoratini oshirish uchun eng foydali va muhim hisoblanadi.

## 8-§. ESHITISH QOBILIYATINI NAZORAT QILISH

Partiturani ko‘zdan kechirish va uni fortepianoda ijro etish jarayonida ijrochining eshitish qobiliyati faol ishlab turishi lozim.

Oldindan ko‘rib chiqishdan ilgariroq ijrochi musiqaning ohangini xayolan kuylaydi. Partiturani ijro etishda eshitish qobiliyati ohangni nazorat qiladi.

Ko‘z bilan o‘qiyotganni «eshitish» va cholg‘uda ijro etayotganda nazorat qilishda xususiyatlarga e’tibor qaratish zarur.

## 9-§. IJRODAN OLDIN KO‘RISH

Ijro jarayonida k o ‘ z  b i l a n  i j r o n i  b o s h q a r i s h mahorati mujassam bo‘lsa, partiturani chalish sifati yanada ortadi. Ko‘z bilan nota yozuvining doirasini ilg‘ash turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zan bir nechta oldingi taktlarni, ba’zan esa faqatgina bir-ikkita akkordni ko‘rish mumkin.

Nota yozuvini ko‘z bilan katta va kichik doirada ilg‘ash asarning sur’atiga, ritmik ko‘rinishining murakkablik darajasiga va albatta, ijrochi mahoratining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Bu ko‘nikmalarni birinchi bor o‘zlashtirishda uzun cho‘zimga ega bo‘lgan akkordlardan tashkil topgan asarlardan foydalanish ma’qul...

Bu borada fermatoli va pauzali partitura misollari yaxshi xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Keyingi cho‘zimli yoki fermatoli akkordni bosib, ijrochi xayolda o‘lchamning asosiy takt hissalarini sanab, shu vaqtning o‘zida keyingi taktlarga nazar tashlashi kerak va asarning oxirigacha shunday harakatlanishi lozim.

O‘rta yoki og‘ir harakatdagi asar partiturasi, ayniqsa, agar asarning usuli bir xil hissalarda kelsa, alohida akkordlar bir necha bor takrorlansa, ko‘rish doirasini kengaytirishni o‘rganishda qulaylik tug‘diradi. M. Bafoyevning «Maqom sadolari» poemasidan «Xotima» qismining 14—20-taktlari bunga misol bo‘la oladi[1].

[1] Ilovaga qarang.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Keltirilgan misol mana shunday partitura namunalaridan hisoblanadi. Ular o‘rtacha harakatchan vaznlarda teng yoki taqqoslangan hissalarda bayon etilgan.

Ijrochining ichki va tashqi musiqiy eshitish qobiliyati bilan bog‘langan holda ko‘rish qobiliyatining parallel rivoji asta-sekin bu xususiyatlarni kengroq qamrab oladi va murakkab musiqiy matnlarda ham imkoniyatlarini namoyish eta oladi. Bu ishda ijrochida rivojlangan usulni sezish qobiliyati muvaffaqiyatli harakatlarning muhim shartlaridan hisoblanadi.

## 10-§. ANSAMBLLARDA PARTITURANI VARAQDAN O‘QISH

Ansambllarda partiturani varaqdan ijro etish diqqatni faollashtiradi, ko‘rish va eshitish qobiliyatlarini o‘tkirlashtiradi, ijrochini tarbiyalaydi, to‘xtash va noo‘rin takrorlashlarni bartaraf etadi.

Birgalikda partiturani varaqdan ko‘rish ichki musiqiy taassurotni jamlangan holda rivojlanishiga yordam beradi. Shu tariqa usul va sur’at hissi sezilarli darajada yaxshilanadi. Asarda musiqiy tuzilishning rivojlanish yo‘llarini oldindan sezish xususiyati o‘tkirlashadi; hamkasb bilan muloqotda bo‘lish malakasi ishlab chiqiladi, ijroda badiiylikka intilish rivojlanadi.

Xor adabiyotini o‘zlashtirishda ansambllarda partiturani varaqdan ijro etish harakatchan usullardan hisoblanadi.

Bir cholg‘uli ansambl.

Ansamblda bitta cholg‘u bo‘lsa, u ikkita ishtirokchidan iborat bo‘ladi.

Partitura matnini teng taqsimlash sharoitida o‘quvchilardan biri yuqori ovozni, boshqasi esa pastki ovozni yo‘naltirishi kerak. Ijroda joylarni almashtirish zarur. Bu tanaffuslarni har bir yangi partitura ijrosiga o‘tishda yoki hozirgina chalingan asarni takrorlash oldidan qo‘llash mumkin.

Birinchi hollarda birga ijro etiladigan xor uchun asar, to‘rt qatorli aniq garmonik fakturali partitura tavsiya qilinadi. Bu holda har bir ijrochi ikki qatorning ijrosiga javob beradi: biri — soprano va alt partiyasiga, boshqasi esa — tenor va bas partiyasiga.

Ikki qatorli partituralarda ijrochilarning biri — ayollar ovozini, boshqasi esa — erkaklar ovozini chaladi. Shu usulga muvofiq uch qatorli partiturada ham matn ijrochilar orasida taqsimlanadi.

**Утро**

*П. Смилга*




Misolda uch qatorli partituralardan namuna keltirilgan bo‘lib, o‘rta qatorda alt partiyasi bayon etilgan. Yuqoridagi ikkita qatorni o‘ng tomonda o‘tirgan cholg‘uchi, uchinchi qatorni esa chap tomonda o‘tirgan ijrochi chalishi lozim.

Varaqdan hamkorlikda ijro etish mahorati bir maromda rivojlanib borsa, ikki, uch, to‘rt qatorli partituradan so‘ng besh va hatto olti (aralash xor uchun ham) qatorli partituralarga ham o‘tish mumkin.

Bir qatorli xor partituralarining (ayol, erkak, bolalar xorlari) ovozlari zich joylashgan va kesishgan joylarini bir cholg‘uda ikki kishi ijro etishi noqulay.

Agar akkordlarning interval tarkibi yaqin bo‘lsa, ular birin-ketin tez harakatlanadi, ovozlarning ustma-ust tushib qolishidan qochish uchun pedalni akkord bilan bir vaqtda, lekin har bir akkordda emas, balki bitta tashlab, keyingi akkordda pedalni olish tavsiya qilinadi.

Akkordlarning ohang cho‘zimi pedal yordamida amalga oshiriladi. Misol uchun partituralarning quyidagi lavhalarini pedalsiz bog‘lab chalish mumkin. Lekin pedal bilan ular ancha cho‘zimli va chiroyli jaranglaydi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Ноктюрн**

*А. Аренский*




O‘ng pedal nafaqat ton va akkordlar cho‘zimini uzaytirish, balki ularning kuchini oshirish maqsadida ham qo‘llaniladi. Bunga quyidagicha erishiladi: ijrochi akkordni olib kerakli klavishlarda barmoqlar bilan ushlab turib pedalni yengilgina bosib, darhol qo‘yib yuboradi. Pedalning ko‘tarilishi bilan barcha torlarning tebranishi natijasida taralayotgan akkord birmuncha kuchayadi. Ohangda faqatgina barmoqlar bilan bosilgan klavishlar jaranglayotganligi sababli ovozning sofligi yo‘qolmaydi. Bu maqsadda pedalni musiqaning turli uzoq to‘xtash hollarida, shuningdek, fermato to‘xtashlarida, uzoq cho‘zimli musiqaning yakunlash lavhalarida, avj akkordlarida, asarning yakunlovchi akkordlarida va h.k.larda qo‘llash o‘rinlidir.

**Самсон**

*Г. Гендель*




Misolda mana shunday partituralar keltirilgan. Unda o‘ng tomonda o‘tirgan ijrochi ayollar ovozidan bir qatorini chalishi lozim.

Toq sonli nota qatorlariga ega partituraning ijrochilar orasida teng bo‘linishi tenor va alt partiyalari doimiy bo‘linuvchi (divizi) partituralarda yengil amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda tenor I yoki alt I partiyalari yuqori ovoz partiyalarini chalayotgan ijrochiga o‘tadi. Qolgan partiyalarni esa ansamblning ikkinchi ijrochisi chaladi.

Ansambl bilan partiturani varaqdan ijro etishda bu masala amaliy ahamiyatga ega; agar ijrochilardan biri ikkinchi ijrochi bosmoqchi bo‘lgan klavishni bossa, kutilgan tovush hosil bo‘lmaydi. Asarlarning ohangida keskin uzilish paydo bo‘lishi mumkin. Ijrochi tovushni chalish imkoni bo‘lmaganida uning diqqatini qochiradi, ijroni muvozanatdan chiqaradi.

Bunday hollardan qochish uchun ijrochilar bitta cholg‘uda ansamblni ijro etishda varaqda o‘zining partiyasidan tashqari hamkasbining ham partiyasini kuzatib borishi lozim. Bundan tashqari, ijrochilar asarni ijro etishda o‘zaro kelishib olishi tavsiya etiladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

I k k i t a  f o r t e p i a n o  a n s a m b l i .
Agar ijrochilar ixtiyorida ikkita cholg‘u asbobi bo‘lsa, unda nafaqat ikkita, balki uchta, to‘rtta ijrochi ham birgalikda partiturani varaqdan chalishi mumkin. Undagi imkoniyat nafaqat ijrochi soni, balki partitura ijrosining boyitilishida ham kengayib boradi. Masalan, ikkita fortepianoda xor partiturasi va uning cholg‘u jo‘rligini to‘laqonli ijro etish mumkin. Bitta fortepianoda esa ko‘p hollarda bunga erishib bo‘lmaydi.

**«Евгений Онегин»**
Хор девушек

**(Moderato con moto)** *П. Чайковский*




Keltirilgan misol aytilganlarni tasdiqlaydi. Agar bu lavhada xor partiturasi o‘ng qo‘l bilan chalinib, chap qo‘l bilan jo‘r bo‘luvchi partiya chalinsa, jo‘rovozdagi o‘ziga xos xususiyat — o‘n oltitalik notalar tashlab ketiladi. Jo‘r ovoz to‘liq ijro etilgan taqdirda xor partiyasi ijro etilmay qoladi. Chap qo‘l partiyasi esa xor partiyasini boshqa oktavada va to‘liq bo‘lmagan ko‘rinishda qaytaradi.
Ikkita cholg‘uda esa ikki kishi tomonidan ikkita partiya ham to‘laqonli ijro etiladi.
Ikkita asbobda ikki ijrochi tomonidan aralash va bir turdagi xor partituralarini ham, ikki, uch, to‘rt va undan ortiq qatorlarda yozilgan va ovozlar jips joylashgan partiturani ham bemalol chalishi mumkin. Bu «a’capella» yoki jo‘rovozli xor partiyasi ham bo‘lishi mumkin.
Agar xor «a’capella» uchun yozilgan to‘rt qatorli partitura ijrochi tomondan ko‘rib chiqilsa, unda ijroda musiqa matnini turlicha taqsimlash mumkin:
1. Ijrochilardan biri ayollar ovozini, ikkinchisi esa erkaklar ovozini ijro etadi.
2. Ijrochilardan biri soprano va tenor partiyasini, ikkinchisi alt va bas partiyalarini ijro etadi.
3. Ijrochilardan biri soprano va bas partiyasini, boshqasi esa alt va tenor partiyalarini ijro etadi.
Ijrochilar orasida partitura matnining taqsimlanishi quyidagicha ham bo‘lishi mumkin:
a) notekis, ya’ni biri qatorlar sonini ko‘proq oladi, boshqasi — kamroq;
b) ba’zan qo‘shish tarzida, agar har bir ijrochi to‘rt qatorli partiturani ikkita emas, balki uchta qatordan chalsa, demak, ularning har bir qatori turli qismlardan iborat bo‘ladi. Ba’zilarda esa takroriy;
v) to‘liq takrorlangan, ya’ni ikkala ijrochining barcha partiyalarida takrorlanish.
Ijrochilar orasida taqsimlangan har bir uyg‘unlik (oxirgisidan tashqari) ularga o‘rin almashtirishga imkon beradi. Partitura partiyalarini jumlalar bo‘yicha almashtirib, davriya yoki ma’lum taktlar bo‘yicha bir necha bor takrorlab ijro etish samarali natijalarni beradi.

**«Bo‘ron» operasidan erkaklar xori**

*M. Ashrafiy, S. Vasilenko*






www.ziyouz.com kutubxonasi




Lavhada ikkita cholg‘uda ijro etuvchi ansambl ijrochilarining taxminiy ijro etish ketma-ketligi ko‘rsatilgan. Quyidagi chalish variantidan foydalanish ijrochini ko‘z yugurtirib o‘qishga o‘rgatadi.

To‘rt qatorliga nisbatan ko‘p qatorli partituralarning qatorlar soniga muvofiq ijrochilarning mas’uliyati yanada oshadi.

Katta xorlar uchun mo‘ljallangan ayrim partituralarda ikkala ijrochining har biri ikki qatordan, ba’zan esa to‘rt qatordan chalishiga to‘g‘ri keladi. Bunday murakkab partituralarni varaqdan ansambl bo‘lib o‘qishda uch yoki to‘rtta ijrochini jalb qilish tavsiya etiladi. Varaqdan o‘qish ko‘nikmalarini egallashda va xor adabiyoti bilan tanishishda katta imkoniyatlar mujassamlangan.

Quyidagi misolda qo‘shaloq xor partiturasi berilgan. Bu yerda har bir ijrochi uch qatordan chalishiga to‘g‘ri keladi. Oddiy taqsimlanishda: biriga I xor partiyasi, boshqasiga esa II xor partiyasi to‘g‘ri keladi.

Musiqiy matni ancha murakkab bo‘lgan bu misolda ansamblini to‘rtta ishtirokchi ijro etishi mumkin. Matnning ijrochilar orasida taqsimlanishida ularning o‘rin almashinuvisiz asarni kamida uch xil variantda ijro etish mumkin.

Ijrochilarning o‘zaro partiyalarni almashtirishi natijasida esa bunday ijro imkoniyatlari o‘n martadan ham oshishi mumkin.

**Звёзды**

*С. Танеев*






www.ziyouz.com kutubxonasi

**Вниз по матушке по Волге**

Русская народная песня

*А. Глазунов*




Misolda sakkiz qatorli partituradan lavha keltirilgan. Bu asarni varaqdan ikkita cholg'uda ansamblning to'rtta ijrochisi ikki qatordan ijro etishi mumkin. Ishtirokchilar o'rtasida matn taqsimlanishining uyg'unligi turlicha bo'lishi mumkin. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Bir xor uchun asar**

**I variant**

O'rin almashuv ketma-ketligi




**II variant**






www.ziyouz.com kutubxonasi

**III variant**




**Ikki xorli yoki solistlar va xor kvarteti uchun asarlar**




Fortepiano jo'rligidagi xor asarini birgalikda ikki cholg'uda ko'rib chiqishda ansambl ishtirokchilari ikki kishidan iborat bo'ishi qulayroq. Bunday hollarda ishtirokchilarning biri xor partiyasi uchun, boshqasi esa jo'rovoz uchun javobgar bo'ladi.

Fortepiano jo'rligidagi xor asarida ansambl ishtirokchilarining soni uch kishidan ham iborat bo'lishi mumkin. Bunday hollarda xor partiturasini ikkita ijrochi, jo'rovozni esa uchinchi ijrochi ijro etishi tavsiya etiladi. Bunday taqsimlanish o'rinli bo'lib, ba'zi asarlarni ijro etishda juda qulay hisoblanadi.

Jo'rovoz partiyasida uchraydigan qiyinchiliklarning barchasini ravon va aniq chalishga harakat qilish lozim. Qiyinchiliklar tug'ilganda ijroda biror joyini qisqartirish va hattoki ayrim unsurlarni qoldirib ketish mumkin. Eng asosiysi, to'xtamaslik lozim. Majburiyatdan to'xtab qolgan hollarda ham ijrochi partiturani ko'z bilan kuzatib, imkoni boricha ijroga tezroq kirishib ketishi lozim.

Partiturani o'qishning eng qulay shakllaridan biri «sur'atda ijro etish»dir. Shu bilan birga ijro davomida ansambl ijrochilarining birontasida qiyinchilik tug'ilsa, boshqa ijrochilar tomonidan yordam ko'rsatilishi kerak. Bunday hollarda eng qulay yordam bu sur'atni sekinlashtirishdir.

Keyinchalik, varaqdan o'qish tajribasi oshgan sari, ijrochilar oldindan duch keladigan qiyinchiliklarni bilib, hamkorlariga o'z navbatida yordam berib boradi.

Ikkita fortepianoda partiturani ijro etishda ijrochilar orasida aloqa o'rnatishning bir nechta usullari mavjud:

1. Mas'ul shaxs tomondan bosh harakati.
2. U tomondan chap qo'l bilan ijro etganda o'ng qo'l bilan takt sanash.
3. Hamkorlarning imo-ishorasini ko'z qirrasi bilan kuzatib borish.
4. O'tkir eshitish qobiliyati bilan barcha ijrochilarni kuzatib borish.

Muvaffaqiyatli ijroning birinchi shartlaridan biri ansamblda partitura ijrosini birgalikda boshlashdir. Keyinchalik hamma joyda akkordlarning chalinishi kelishilgan holda bo'lishi kerak.

Ijrochilarning o'zaro bir-birini tinglashi va yakkaxon partiyalarni birinchi darajaga chiqarish, qolgan partiyalarni esa nisbatan pasaytirib chalish ijroda asosiylardan hisoblanadi.

## Oltinchi bob

# TRANSPOZITSIYA

## 1-§. TRANSPOZITSIYA

T r a n s p o z i t s i y a l a s h yoki boshqacha qilib aytganda, t r a n s p o z i t s i y a (lotincha *transpositio* — «ko'chirish», «joyini o'zgartirish») tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish ma'nosini anglatadi.

Transpozitsiya ma'lum tonlar miqdoriga — $^{1/2}$ ton, 1 ton, $1^{1/2}$ ton va h.k.ga qarab amalga oshirilishi mumkin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

### Vatanginam

**Vals tempida**

*A. Mansurov* musiqasi
*P. Mo'min* she'ri




Misolda lavhaning asl ko'rinishi va pastda ½ tonga transport qilingan holati ko'rsatilgan.

Transpozitsiya qilish uchun aniq intervalga, masalan, orttirilgan prima, kichik yoki katta sekunda, tersiya, oktava va h.k.ga ko'chirish vazifasi berilishi ham mumkin.

### Mustaqillik lolalarimiz

*R. Abdullayev* musiqasi
*N. Narzullayev* she'ri

**Allegretto**




Misolda kichik tersiyaga ko'chirish ko'rsatilgan.

Ba'zi partituralar yoki ularning lavhasi berilgan asosiy tonallikdan boshqa tonallikka ko'chiriladi.

### Assalom

*M. Otajonov* musiqasi
*K. Ota* so'zi

**Moderato**




Transpozitsiyalangan asar yoki lavhada yangi tonallik asos sifatida ko'rib chiqiladi.

Partituraning transpozitsiyasi ijroda yoki nota yozuvida amalga oshirilishi mumkin. Lekin transpozitsiyalashning shartiga ko'ra asar boshqa tonallikka o'zgarishsiz ko'chirilishi kerak. Ohang ketma-ketligi, partituraning ritmik va garmonik tuzilishi, ovozlar soni, ularning joylashuvi va qolgan boshqa unsurlar transpozitsiya qilinganda saqlab qolinadi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## 2-§. KUYLASHDA VA FORTEPIANO IJROSIDA TRANSPOZITSIYA

Kuylash va fortepianoda ijro etishda transpozitsiya vazifalari turlicha.

Kuylashda asosiy tonallikdan boshqasiga o'tish qiyinchilik tug'dirmaydi. Kuylovchilar qaysi tonallikka o'tishidan qat'i nazar yangi tonallikni asosiy tonallik sifatida tasavvur qilaveradi.

Misolda boshlang'ich akkord asosiy va har xil intervallarga transport qilingan ko'rinishlarda namoyish etilgan. Kuylovchilarga balandlik toni berilsa, xor har qanday balandlikka bemalol moslashib ketadi. Bunday imkoniyat xor asarlarini kuylashda ham yuqoriga, ham pastga bir xil transport qilish imkonini beradi.

Katta tersiya yoki ikki tonga asarning ko'chirilishi nisbatan uzoq bo'lib, shu uchun ham asl tonallikdan sezilarli darajada uzoqlashadi. Bunday baland va past intervalga ko'chirilgan asarning ijrosida ohang kuchi, ovoz partiyalarining tembr nisbiyligi sezilarli darajada o'zgaradi.

### Yosh askarlar qo'shig'i

*S. Jalil* musiqasi
*S. Barnoyev* she'ri

**Vals tempida**




Sof kvartaga ko'chirilgan asarni eshitib uning asosiy tonallikdan katta masofaga ko'chirilganligini fahmlash qiyin emas.

Xonandalarning boshqa tonallikka oson o'tish imkoniyatlari xor bilan ishlashda, konsertlarda nisbatan muhim qulayliklar yaratishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham xor bilan ishlash amaliyotida dirijyorlar va pianinochi jo'rovozlardan xor partituralarini nafaqat asl ko'rinishida, balki boshqa tonallikda ijro eta olishni ham talab qiladi.

Xor asarini fortepianoda transport qilingan holda ijro etish asl tonallikda ijro etishga nisbatan odatda murakkabroq hisoblanadi.

Malakali xor dirijyori va uning yordamchisi — jo'rovoz — asl tonallikda yozilgan partiturani ijro davomida birdamiga transpozitsiyalash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Doimiy ishlash jarayonida partiturani fortepiano ijrosida transpozitsiyalash mahorati sekinlik bilan shakllanadi. Ma'lum xor asarlarini asl tonallikda tayyorlash bilan bir qatorda bir nechta boshqa tonalliklarga transpozitsiyalangan variantlariga ham tayyor bo'lish lozim.

## 3-§. TRANSPOZITSIYANING QO'LLANISHI VA XOR BILAN ISHLASH JARAYONIDA UNDAN FOYDALANISH SHAKLLARI

Turli musiqiy-texnik va badiiy darajadagi xor jamoalari bilan ishlashda transpozitsiyalash muhim texnik usullardan hisoblanadi. Xor mashg'ulotlarida transpozitsiyalash ijrochilarga o'rta va qulay diapazonda asarning o'zlashtirilishini tezlashtiradi va yengillashtiradi. Masalan, ovoz partiyalari juda baland tovushli bo'lsa, mashq jarayonida pastga transport qilinib ijro etiladi.

Juda past ovoz partiyalariga ega bo'lgan boshqa partituralarda ovozlar ancha yuqori tonallikda kuylanadi.

Butun xorda keng diapazonli ovozlar ishlatiladigan asarlar ko'pincha alohida qism va lavhalarga bo'lib o'rganiladi hamda shu qism va lavhalarning ba'zilari yuqoriga, ba'zilari esa pastga transpozitsiya qilinadi.

Xor bilan ishlashda transpozitsiya ko'pincha jamoaning yangi asar bilan tanishtirishning dastlabki jarayonida ishlatiladi. Boshqa hollarda esa bunday qisqa muddatli o'lchov yetarli bo'lmaydi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Xor partituralari orasida ko‘pincha xor uchun balandlik jihatining original tonalligida kuylash yetarli, lekin mashqlarda juda oddiy hollarda takrorlash murakkab hisoblanadi. Bunday hollarda transpozitsiyadan ma’lum bir partiturani to‘liq o‘rganish jarayonida xonandalarga yengillik yaratuvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Yaxshi amaliy natijalar asarlarni o‘rganish paytida transpozitsiyadan uzoq muddat foydalanish imkonini beradi, ularni xor asosiy tonalliklarda tezda ijro eta olmaydi.

Bunday hollarda kerakli tonal balandlikka asarning asosiy tonalligidan turli intervallar (ancha kengdan kichikka qarab) izchilligi orqali o‘tish natijasida asta-sekin erishiladi.

**Грозовые тучи**

*Ц. Кюи*




Misolda barcha ovoz partiyalarida deyarli yuqori tessitura ishlatilgan asardan parcha berilgan.

Konsert amaliyotlarida ham transpozitsiya keng qo‘llaniladi. Ba’zi xor jamoalari uchun asosiy tonallikda ijro etish imkoni bo‘lmagan alohida asarlarni dasturga kiritishga aynan transpozitsiya imkon beradi.

Ba’zida transpozitsiya asarning badiiy darajasini tinglovchilar e’tiboridan tushib qolmasligi maqsadida ham qo‘llaniladi. Shuningdek, xor, bu tirik (jonli) odamlar jamoasi va ular o‘zlarini har doim ham yaxshi his qilavermasligi ham inobatga olinadi. Ba’zida jamoa navbatdagi chiqishda ko‘tarinki ruhda bo‘ladi, boshqa paytda esa aksincha, kayfiyati bo‘lmasligi mumkin. Jamoaning asosiy qismi uchun har qanday ruhiy tushkunlik asarning badiiy ijro sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

To‘satdan o‘rganilgan asarni doimiy emas, aksincha, yangi tonallikda kuylash zarurati ijrochilarda bo‘lgan mushaklar tarangligini yo‘qotadi va ularni shu zahotiyoq fikrni yig‘ib, diqqat bilan kuylashga majbur etadi.

## 4-§. ORTTIRILGAN PRIMA INTERVALIGA TRANSPOZITSIYA QILISH

Xor bilan ishlashda asarni yarim tonga transpozitsiya qilish zarurati tez-tez uchraydi. Partituralarning bunday o‘zgartirilishi ko‘pincha transpozitsiyaning oddiy yo‘li bilan, ya’ni orttirilgan prima intervaliga o‘zgartirish yoki xromatik yarim tonga o‘tish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunday ko‘rinishdagi transpozitsiyada ijrochi partituradagi kalit belgilarini xayolan o‘zgartirishi va asarni ijro etish davomida uchragan tasodifiy belgilarni mos ravishda o‘zgartirib borishiga to‘g‘ri keladi.

Masalan, asar *fa minor* tonalligida yozilgan bo‘lsa va uni yarim ton baland ijro etish talab etilsa, u quyidagicha bajariladi. Ijrochi *fa minordan* yuqoriga orttirilgan primaga transport qilsa, yangi tonallik *fa-diyez minor* ekanligini aniqlaydi. *Fa minor* tonalligining kalit oldida 4 ta *bemol* bo‘lsa, *fa-diyez minor*ning kalit oldida 3 ta *diyez* belgilari bor. (Jami 7 ta kalit belgilari mavjud.) Ijrochi yangi tonallikdagi kalit belgilarini xayolan tartib bilan qo‘yib chiqadi va diqqatni shunga jalb etib, asarda shu belgilarni qo‘llagan holda uni ijro etadi.

**G‘uncha labi xandonim**

O‘zbek xalq qo‘shig‘i




Tonal o‘tishlardagi ba’zi qonuniyatlarni kuzatish natijasida quyidagi amaliy xulosalar kelib chiqadi:

1. Xromatik yarim tonga yoki orttirilgan primaga transpozitsiya qilinganda tonalliklar 7 ta kalit oldi belgilari bilan farq qiladi. Masalan, asosiy tonallikda kalit oldi belgilari bo‘lmasa (Do major, lya minor), mazkur partiturani xromatik yarim tonga yuqoriga o‘zgartirganda yangi tonallikda 7 ta diyez bo‘ladi, pastga o‘zgartirilganda 6 ta bemol bo‘ladi.

Bemolli tonallikdan bemolliga transpozitsiya qilishda ham kalit oldi belgilari xuddi shunday aniqlanadi, lekin qo‘shuv amali bemollar bilan amalga oshiriladi.

2. Orttirilgan prima intervaliga transpozitsiya qilinganda yangi tonallikka o‘tish bilan tasodifiy belgilar barchasi o‘zgaradi.

Ko‘tariluvchi transpozitsiyada dubl bemol bemolga, bemol bekarga, bekar diyezga, diyez dubl diyezga aylanadi. Pastga qarab o‘zgartirilganda dubl diyez diyezga, diyez bekarga, bekar bemolga, bemol dubl bemolga aylanadi. Asarlar xromatik yarim tonga transpozitsiya qilinganda alteratsiya belgilarining bunday o‘zgarishi b o s q i c h yoki b e l g i g a o ‘ z g a r t i r i s h i f o d a s i deyiladi. Yuqoriga orttirilgan prima



www.ziyouz.com kutubxonasi

O'ng qo'l musiqani ijro etishda muhim tashkiliy jarayonlarni boshqaradi. U vaqt va tezlik o'lchovini ko'rsatadi. Shuning uchun o'ng qo'ldan cholg'uda chalib kuylashni boshqarishda dirijyorlikning asosiy vazifalarini hal qilib beruvchi sifatida foydalaniladi.

Ikkala qo'lni bunday taqsimlash qat'iy tavsiya etiladi, lekin shart deb hisoblanmaydi. Xor masalalari bo'yicha taniqli ustozlardan biri shunday deydi: «Biz o'z oldimizga birinchi navbatda dirijyorlik mahoratini, ya'ni o'ng qo'l bilan bajara oladigan barcha holatlarni chap qo'l bilan bajara olish va uning aksini bajarish talabini qo'yamiz... Dirijyorning qo'llari ijro talablari yoki dirijyorlik mahoratini mukammal biluvchining o'z xohishiga qarab vazifasini o'zgartirishi mumkin».

## 3-§. XOR RAHBARINING FORTEPIANODAGI O'RNI VA HOLATI

Ijroga qo'llar taqsimlanishi tavsiya etilganda, ya'ni chap qo'l bilan chalib, o'ng qo'l bilan dirijyorlik qilganda fortepiano o'rtasiga emas, balki undan sal o'ng tomonga o'tirish hamda chap qo'l va yelka chizig'i deyarli klaviatura markazida bo'lishi kerak.

Xor dirijyori tomonidan tegishli qo'l harakati yordamida berilayotgan ijro ko'rsatmalarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish kerak. Qo'lni nota pyupitridan yuqoriga ko'tarib dirijyorlik qilish va chalish holdan toydiradi. Agar qo'lni klaviaturaga yaqin tutsa, asbob orqasida o'tirgan xor qatnashchisiga ko'rinmay qoladi. Dirijyor klaviatura markazidan chetroqda turib nota va pyupitrning o'ng tomon burchagidagi bo'shliqda qo'lini harakatlantirishi mumkin.

O'ng qo'lning holdan toyishini kamaytirish maqsadida ba'zi dirijyorlar va musiqa o'qituvchilari o'tirmasdan, tik turib chalib, bir vaqtning o'zida xor kuylashini boshqarishga harakat qilishadi.

Bu holatni asosan mashg'ulotlarda kuzatish mumkin, lekin konsertlarda hech qachon bunga yo'l qo'yilmaydi.

Ijrochining bir paytning o'zida ikkita vazifani bajarishi, ya'ni tik turgan holatda cholg'uni egilib chalish va dirijyorlik qilish, birinchidan, dirijyor uchun noqulay va qiyin. Ikkinchidan, harakatlarni bu holatda bajarish tinglovchilar diqqatini jalb qilmaydi, dirijyorning o'zi ham ancha payt egilgan holda turavergach, jamoani o'ziga bo'ysundira oladigan aniq harakat qilishga imkoni bo'lmaydi.

Xorni boshqarish dirijyorning yagona vazifasi bo'lganda, u albatta tik turgan holatda dirijyorlik qilishi kerak. Ikkala vazifani bajarganda esa o'tirgan holatda bajarishi tavsiya etiladi.

## 4-§. DIRIJYORLIKNI AMALGA OSHIRUVCHI QO'L HARAKATLARI

Chap qo'l bilan chalganda o'ng qo'ldagi dirijyorlik harakatlarini kuylovchilar to'g'ri qabul qilishlari uchun aniq metrik harakat bo'lishi kerak. Rasmdagi metrik harakatlarni eniga sal uzunroq va bo'yiga sal qisqaroq qilib bajarish tavsiya etiladi (rasmlarga qarang).




Mazkur sharoitda dirijyorlikni amalga oshiruvchi qo'lning ijro harakatlari odatdagidan ko'ra kamroq bo'lsa-da, ular vaqt va tezlik o'lchovini ko'rsatishga, musiqa xarakterini aniqlashga, uning dinamikasini boshqarishga, ovoz partiyalarining o'z vaqtida kuylashni boshlashiga, mayin, uzib-uzib kuylash usullarini, bo'yoqlarni ko'rsatishda o'z vaqtida ko'rsatmalar berishga imkon beradi.

Alohida ovoz partiyalari va butun xorga kuylashni boshlash va yakunlashni ko'rsatish, ijro xarakterini boshqarish va h.k.ni ikki tekislikda joylashgan uch yoki olti nuqtadan tashkil topgan qo'l harakatlari bilan amalga oshirish tavsiya etiladi. Ya'ni:



www.ziyouz.com kutubxonasi

1) qo‘l harakatining shartli markazidan butun xorga va shu yerdan sal pastroqda — tekislik tengida faqat ayollar ovoziga murojaat qilish kerak;

2) shartli markazdan o‘ngroqda bo‘lgan nuqtadan baslarga va o‘sha yerning o‘zidan sal pastroqda altlarga murojaat qilish kerak;

3) markazdan chaproqdagi nuqtadan tenor va sopranolarga murojaat etish lozim.



Bir turdari — faqat ayollar yoki faqat erkaklar xori sharoitida asl nuqtadan 3 ta murojaat yetarli: markazdan hammaga, o‘zidan o‘ngroqda past ovozlarga va chaproqda baland ovozlarga.

## 5-§. PARTITURANI BIR QO‘LDA CHALISH XUSUSIYATLARI

Partiturani bir qo‘l bilan chalganda ijrochining imkoniyatlari teng yarmiga kamayadi. Birinchidan, faqatgina bitta qo‘l ijro etishi, ikkinchidan, har xil holatlarga o‘tishda qo‘l harakatining zarurligi bunga sabab bo‘ladi. Gap shundaki, ikki qo‘l bilan chalganda barmoqlarning oddiy ketma-ketligi ta’minlanadi. Bu yerda esa cholg‘uchidan bir qo‘lda juda ko‘p harakatlar qilish talab qilinadi.

Partiturani bir qo‘l bilan chalganda oralig‘i oktavadan keng bo‘lgan akkordlar qiyinchilik tug‘diradi.

**Ласточка**

*Ф. Абт*




Ularning asarda paydo bo‘lishi partiturani erkin ijro etishdagi asosiy to‘sqinliklardan hisoblanadi. Agar bu akkordlar (misolda ko‘rganimizdek) zich joylashuvdan kengga o‘tsa, shuningdek, yana tez-tez o‘zgarsa, qiyinchilik o‘sib boraveradi.

Katta qo‘lga ega bo‘lgan dirijyor diapazoni oktavadan ortiq bo‘lgan alohida akkordlarni ham chalishi mumkin. Biroq, bunday akkordlar asarda ko‘p ovozlarga bo‘linib, tez sur’atda ketma-ket kelaversa, maxsus usullarni qo‘llamay turib uning uddasidan chiqish qiyin.

## 6-§. PARTITURANI BIR QO‘LDA IJRO ETISH USULLARI

Ikki qo‘lda chalinadigan ba’zi partituralar hech qanday qiyinchiliksiz bir qo‘lda chalinishi mumkin. Keltirilgan misolda shunday partituraning namunasi berilgan. Ko‘rganimizdek, asar ayollar xori ijrosi uchun yozilgan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## Xorazm raqs yallasi

«Dilorom» operasidan

**Allegretto** *M. Ashrafiy*




Partiturada ovozlar hamma joyda zich joylashgan, ularning harakati parallel; ritmik tuzilishi oddiy, u yarimtalik, chorak va sakkiztalik cho'zimlar harakatiga tayanadi, sur'ati o'rtacha tezlikda, ovozlar joylashuvi zich, akkordlar oktavadan keng emas.

Partituraning bu misoli bir qo'lda erkin ijro etilishi mumkin. Fakturasi qo'l imkoniyatlari chegarasidan tashqariga chiqmaydi.

3, 4 va ko'pi bilan 5 ta (oxirgisi ayrim lavhalarda uchraydi) ovoz partiyalaridan iborat bo'lgan partituralar bir qo'lda erkin va qulay ijro etish imkonini beradi. Ovoz partiyalari diapazoni oktavadan oshmagan akkord zich joylashgan bo'lishi kerak. Asarda ovozlar harakati ma'lum darajada mustaqil bo'lsa-da, imkon qadar parallel harakat qilishi kerak.

Navbatdagi misol barcha ovoz partiyalari ajratilgan aralash xor partiturasidan lavhadir. Asar sur'ati sekin. Ritmik ko'rinishi murakkab emas. Ovozlar harakati birgalikda, lekin umumiy ovoz akkordlari ko'p holatlarda hajm jihatdan oktavadan oshiq bo'lib, uzluksiz o'zgaradi.

## Море яростно стонало

*А. Давиденко*




Bu misolni bir qo'l bilan chalib to'liq mazmunini yetkazib berib bo'lmaydi. Unda faqat ayollar xorini yoki faqat erkaklar xorini ijro etish mumkin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Bir qo'lda chalishda bu turdagi partitura matnini qisman qamrab olish ko'pincha aniq usul sifatida qo'llaniladi. Bu usuldan asarlarda ayollar yoki erkaklar ovozida qo'sh akkordlar chalinganda foydalaniladi. Boshqacha xarakterdagi musiqada bu usul alohida ovoz mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin. Dirijyorlikni ham qo'shib asarni to'liq chalish imkoni bo'lmaganda ham partiturani bir qo'lda qisman chalish foydalidir; u kuylayotgan partiyani ushlab turadi va uning atrofidagi tovushlar qanday jaranglashi to'g'risida tasavvur uyg'otadi.

Nisbatan qiyinroq partiturani ijro etishda bu usulda chalish butun xorni qo'llashni ta'minlamaydi. Ijrochi partitura bo'yicha yuqori tovushlarni chalib, pastki ovozlarni qo'llab turishi imkonini yo'qotadi. Shuningdek, o'rta ovozlar ham qisman ushlab turilgan hisoblanadi. Pastki va qisman o'rta ovozlarni ushlab turgan taqdirda yuqori ovozlarni ushlab turish imkoni yo'qoladi. Natijada asarda ohang ham yo'qoladi. Bu usulda ko'pincha cholg'u qo'llab turishini talab qilmaydigan yorqin melodik ovozlar dirijyor tomonidan ijro etiladi. Boshqa, ohang jihatdan kam ahamiyatga ega bo'lgan, kuylovchilar tomonidan qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladigan ovozlar esa asbobda chalishda tashlab ketiladi.

Navbatdagi misolda erkaklar xori uchun namuna berilgan.

**У ворот, ворот батюшкиных**

Русская народная песня

*М. Мусоргский*




Asar sur'ati vazmin bo'lib, ritmik ko'rinishi murakkab emas. Lekin partiyalar juda ko'p bo'linadi (divizi). Ovozlar joylashuvi hamma joyda ham zich emas; ayrim akkordlarda chekka tovushlar orasidagi masofa oktavadan oshadi.

Shunga qaramay bu partiyani bir qo'lda chalish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Diapazoni oktavadan oshiq bo'lgan akkordlarning pastki tovushini hech qanday zararsiz oktavani yuqoriga ko'tarib, asarni to'laqonli ijro etish mumkin.

Bu misolda keng qamrovli akkordlarning bir oktavada jamlash usuli qo'llanilgan. Diapazoni oktavadan oshiq bo'lgan, keng joylashgan akkordlarda pastki tovushlar oktava yuqoriga ko'tarib chalinadi yoki juda kam hollarda yuqorigi tovush oktava pastga tushiriladi.

Xor partiyasini cholg'uda qo'llab turish usuli ba'zida muvaffaqiyatli chiqadi. Lekin bu turdagi o'tkazishlarni amalga oshirish hammavaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Bu usulni ba'zan alohida akkordlarga yoki katta bo'lmagan tuzilmalarga qo'llash tavsiya etiladi.

## 7-§. KENG QAMROVLI AKKORDLARNI IJRO ETISH USULLARI

Diapazoni oktavadan oshiq bo'lgan akkordlardan tashkil topgan partiturani fortepianoda bir qo'lda chalish murakkab hisoblanadi, lekin maxsus usullar qo'llash orqali amalga oshirsa bo'ladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu masalada partiturada ikki qo‘l bilan chalinadigan keng qamrovli akkordlar tamoyilini takrorlovchi «qamrov» usulini qo‘llash bir qator imkoniyatlarni yaratadi.

Mazkur usulning mohiyati shundaki, oktavadan oshiq joylashgan har bir akkord bir paytda to‘liq chalinmay, ikkita harakat orqali chalinadi.

**Песни леса**

**Andantino (неторопливо)** *Й. Свенсен*




Keng qamrovli akkordga takt hissasi tushadigan qisqa fursat forshlag bilan olinadi va pastki bas tovushi pedal yordamida cho‘zib turiladi. Keyinchalik takt hissasini ko‘rsatib, akkordning qolgan qismi chalinadi.

Yuqorida ko‘rganimizdek, bu yerda ham oktavadan oshiq bo‘lgan har qanday akkordlar birin-ketin, ya’ni arpedjio emas, balki ikki usulda chalinadi. Qoida bo‘yicha forshlag yordamida har doim pastki tovush olinadi, qolgan tovushlar esa ikkinchi harakatda olinadi. Akkordning teskari tartibda (ya’ni yuqori tovushlarni forshlag yordamida) olish zaruriyati juda kam uchraydi.

Ikki qo‘lda chalishdan farqli o‘laroq, partiturani bir qo‘lda chalish sharoitida forshlag usulini qo‘llash ayrim xususiyatlarga ega. Ulardan eng muhimlari quyidagilarda ifodalanadi:

1. Akkordda birin-ketin keladigan nisbatan (3, 4 taktga cho‘zilgan) uzun cho‘zimdagi chuqur baslarga boshqa parallel oktava bo‘lsa, ular umuman olinmaydi yoki qisman olinadi.

**Ноктюрн**

*А. Аренский*






www.ziyouz.com kutubxonasi

Keltirilgan misolda partitura lavhasi asl bayonida berilgan. Pastki qatorda esa xuddi shu lavha chuqur bas tovushini forshlag yordamida chalinishi mumkin bo'lgan misol berilgan.

2. Oktavadan oshiq joylashgan akkordning bir necha bor takrorlanishi, ya'ni forshlagda chalinadigan bas partiyasini har safar takrorlash shart emas: ularni bir akkorddan so'ng ham pedal yordamida cho'zib chalish mumkin.

3. Forshlaglarni tez-tez qo'llash bilan musiqa harakatini buzmaslik maqsadida keng joylashgan takrorlanuvchi akkordlarni navbatma-navbat pedal yordamida bas, ba'zan yonidagi tovush ham pedal yordamida cho'ziladi.

4. Taktning birinchi hissasiga tushadigan keng akkordlar ikki qo'lda olinishi mumkin. O'ng qo'l bu holda dirijyorning pastga harakatidagi sanoqning birinchi hissasiga tushib, cholg'uning davomi sifatida kiradi. Bir qo'l uchun qiyin bo'lgan akkordni olishda qatnashgan o'ng qo'l royalda uzilib, dirijyorlik harakati bo'yicha «2, 3 va h.k.» harakat qilishni davom ettiraveradi.

5. Chap qo'l partiyasini chalish murakkab bo'lgan partituralarning uzun lavhalarida qiyin joyni ijro etishda vaqtincha o'ng qo'l ham ishtirok etishi mumkin. Ba'zida bir necha akkord bo'lishi ham mumkin. Boshqa hollarda bu hol asarning butun bir lavhalarida ham bo'ladi. Lekin ikki qo'l bilan chalib qiyinchilik bartaraf etilgandanoq, o'ng qo'l dirijyorlik qilishga o'tadi. Chap qo'l partiturani chalishni davom ettiraveradi.

Umuman olganda partiturani bir qo'lda ijro etishda ijrochi ovozining qo'shilishi foydali.

Bir qo'lda chalinadigan xor partituralarini ham transpozitsiya qilish mumkin. Boshqa tonallikka o'tish xohlagan intervalda amalga oshirilishi mumkin.

**A. Navoiyga poema-qasida**

*M. Burxonov* musiqasi
*A. Oripov* she'ri




Keltirilgan misolda xor asaridan namuna berilgan bo'lib, uning orttirilgan primaga transpozitsiya qilinib bir qo'lda chalish imkoni ko'rsatilgan.

Transpozitsiya qilingan tonallikda kuylash bilan birgalikda partiturani ijro etishda chalish va bir vaqtning o'zida dirijyorlik qilish albatta murakkab. Lekin uni ma'lum mashqlar va qat'iyatlikda amalga oshirish mumkin. N. A. Rimskiy-Korsakov aytganidek: «Amaliyot — bu o'rganish uchun eng yaxshi vositadir».



www.ziyouz.com kutubxonasi

# ILOVA

## O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM

Moderato con moto

*J. Jabborov* she'ri
*D. Omonullayeva* musiqasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi




Qo'shiqlarda Vatan ma'nosi,
Qo'shiqlarda xalqim sadosi,
Vatan kuyin yangratsa dillar,
Yangrar yurtning yeru samosi.

N a q a r o t

Qo'shiq — qalbim, chamanim manim,
Qo'shiq — faxrim, jon-tanim manim.
Diyor bo'ylab yangrar bir qo'shiq:
«O'zbekiston — Vatanim manim».



www.ziyouz.com kutubxonasi

## QABOG‘ING YAXSHI

*A. Navoiy* ruboiysi
*B. Lutfullayev* musiqasi






www.ziyouz.com kutubxonasi

## BILMAS EDIM

*A. Navoiy* ruboiysi
*B. Lutfullayev* musiqasi

Adagio ♩ = 52






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi

## ONA ZAMIN NIDOSI

*T. Niyoz* she'ri
*H. Rahimov* musiqasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi




**UFOR**

*M. Bafoyev*
«Maqomlar sadosi» turkumidan

**Allegro**






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi

# XOTIMA

*M. Bafoyev*
«Maqomlar sadosi» turkumidan






www.ziyouz.com kutubxonasi




## TOSHKENT TARONASI

*Jamol Kamol* she'ri
*H. Rahimov* musiqasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi






www.ziyouz.com kutubxonasi

## MUNDARIJA

KIRISH .................... 3

**BIRINCHI BOB**
**Xor partituralari va uning xususiyatlari**

1-§. Xor partiturasi haqida umumiy ma'lumot .................... 4
2-§. Kalitlar .................... 8
3-§. Xor partiturasi yozuvining turlari .................... 9
4-§. Xor partituralarida she'riy matnning yozilishi .................... 12

**IKKINCHI BOB**
**Xor partiturasini o'qish turlari**

1-§. «Xor partiturasini o'qish» iborasi .................... 15
2-§. Xor partiturasi o'qilishining ko'rinishlari .................... 15

**UCHINCHI BOB**
**Fortepianoda xor partituralarini ijro etish tamoyillari**

1-§. Fortepiano ijrosida xor partiturasining eshitilishi .................... 17
2-§. Zaruriy ko'rsatmalar va partiturani fortepianoda ijro etishning muvaffaqiyatli shart-sharoitlari .................... 17
3-§. Bir qatorda yozilgan partituraning ijro xususiyati .................... 18
4-§. Ikki qatorda yozilgan partiturani chalish xususiyatlari .................... 19
5-§. Uch qatorda yozilgan partituralarning ijro xususiyatlari .................... 20
6-§. To'rt qatorli partitura yozuvida ijro uslublari .................... 22
7-§. Kanon .................... 24
8-§. Cholg'ular jo'rligida xor partituralarini ijro etish uslubi .................... 25

**TO'RTINCHI BOB**
**Pedalizatsiya**

1-§. Fortepiano pedallari .................... 26
2-§. Pedal yordamidagi ijro qulayliklari .................... 26
3-§. Partiturada pedal yozuv belgilarining qo'llanilishi .................... 26

**BESHINCHI BOB**
**Xor partiturasini fortepianoda chalish mahoratini oshirish**

1-§. Xor partiturasini varaqqa qarab chalishning mohiyati, maqsad va vazifalari .................... 27
2-§. Tahliliy o'qish .................... 27
3-§. Asta-sekin o'qib chiqish .................... 28



www.ziyouz.com kutubxonasi

4-§. Sur'atda chalib o'qish ... 28
5-§. Varaqqa qarab o'qishning uch turini galma-gal qo'llash uslubi ... 28
6-§. Varaqqa qarab o'qish mahoratini oshirish shartlari ... 29
7-§. Varaqdan ijro etish oldidan partituranі ko'z yugurtirib ko'rib chiqish ... 29
8-§. Eshitish qobiliyatini nazorat qilish ... 30
9-§. Ijrodan oldin ko'rish ... 30
10-§. Ansambllarda partituranі varaqdan o'qish ... 31

## OLTINCHI BOB
### Transpozitsiya

1-§. Transpozitsiya ... 36
2-§. Kuylashda va fortepiano ijrosida transpozitsiya ... 38
3-§. Transpozitsiyaning qo'llanishi va xor bilan ishlash jarayonida undan foydalanish shakllari ... 38
4-§. Orttirilgan prima intervaliga transpozitsiya qilish ... 40
5-§. Transpozitsiyadagi cheklanishlar ... 41

## YETTINCHI BOB
### Partiturani bir qo'l bilan chalib, ikkinchi qo'l bilan dirijyorlik qilish

1-§. Partiturani bir qo'l bilan chalish xususiyatlari ... 41
2-§. O'ng va chap qo'lning chalish va dirijyorlik qilish jarayonida ishlatilishi ... 41
3-§. Xor rahbarining fortepianodagi o'rni va holati ... 42
4-§. Dirijyorlikni amalga oshiruvchi qo'l harakatlari ... 42
5-§. Partiturani bir qo'lda chalish xususiyatlari ... 43
6-§. Partiturani bir qo'lda ijro etish usullari ... 43
7-§. Keng qamrovli akkordlarni ijro etish usullari ... 45

### Ilova

O'zbekiston — Vatanim manim. *J. Jabborov* she'ri, *D. Omonullayeva* musiqasi ... 48
Qabog'ing yaxshi. «Firoq» turkumidan. *A. Navoiy* ruboiysi, *B. Lutfullayev* musiqasi ... 51
Bilmas edim. «Firoq» turkumidan. *A. Navoiy* ruboiysi, *B. Lutfullayev* musiqasi ... 52
Ona zamin nidosi. *T. Niyoz* she'ri, *H. Rahimov* musiqasi ... 55
Ufor. «Maqomlar sadosi» turkumidan. *M. Bafoyev* musiqasi ... 59
Xotima. «Maqomlar sadosi» turkumidan. *M. Bafoyev* musiqasi ... 63
Toshkent taronasi. *J. Kamol* she'ri, *H. Rahimov* musiqasi ... 64

www.ziyouz.com kutubxonasi

*O'quv qo'llanma*

**Oltun Sodiqov**

**XOR PARTITURASINI O'QISH**

Muharrir **M. Yo'ldosheva**
Musavvir **A. Bobrov**
Badiiy muharrir **Yu. Gabzalilov**
Texnik muharrir **T. Smirnova**
Musahhih **F. Ortiqova**
Kompyuterda tayyorlovchi **Ye. Gilmutdinova**

IB № 4168

Bosishga 03.03.04- y. da ruxsat etildi. Bichimi $60\times90^1/_8$. Tip tayms garniturasi. Ofset bosma. 9,0 shartli bosma toboq. 10,0 nashr tobog'i. Jami 3000 nusxa. 42—2003 raqamli shartnoma. 67 raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. // 700128, Toshkent, Usmon Yusupov ko'chasi, 86.

www.ziyouz.com kutubxonasi

G'.G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI

www.ziyouz.com kutubxonasi